

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI
“IQTISODIYOT VA MENEJMENT” FAKULTETI**

“IQTISODIYOT” KAFEDRASI

“Himoyaga tavsiya etildi”

“Iqtisodiyot” kafedrası
mudiri, i.f.n

_____ Sh.A.Sultonov

“Iqtisodiyot” kafedrası majlisi
bayonnomasi № __ 2017 yil

“ ____ ” ____

**5230100 - “Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha)”
ta‘lim yo‘nalishi**

Ik-113 guruh talabasi Haitov Bektoshning

“Oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlashning asosiy yo‘nalishlari (*Tayloq tumani statistika bo‘limi ma‘lumotlari bo‘yicha*)”

MAVZUSIDAGI

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar: A.P.Hazratov

Ilmiy maslahatchi: F.B.Abdukarimov

SAMARQAND – 2017

Mundarija:

Kirish.....
I - Bob. Milliy iqtisodiyotni rivojlanishida oziq-ovqat sanoatining o‘rni.....
1.1. Oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashning o‘ziga xos xususiyatlari.....
1.2. O‘zbekistonda oziq-ovqat sanoatini rivojlantirish omillari
1.3. Oziq-ovqat mahsulotlari iste’mol qilish darajasi va unga ta’sir etuvchi omillar
II-Bob. Tayloq tumanida oziq-ovqat xavfsizligi bilanta’minlanganlik holati va tahlili.....
2.1. Tayloq tumaning ijtimoiy – iqtisodiy tavsifi.....
2.2. Aholini oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan iste’mol talablarining tahlili.....
III-Bob. Oziq-ovqat xavfsizlini ta’minlash yo‘llari.....
3.1. Oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash istiqbollari.....
3.2. O‘zbekiston oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashning asosiy yo‘nalishlari va mexanizmlari.....
3.3. Oziq-ovqat xavfsizlini ta’minlash mehnat va yong’in xavfsizligi.....
Xulosa va takliflar
Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.....

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi: Mamlakatni modernizatsiyalash sharoitida oziq-ovqat sanoatini va Qishloq xo'jaligini isloh qilish, fermer xo'jaliklariga birlashtirilgan yer uchastkalarini optimallashtirish, paxta va g'allaning xarid narxlarini oshirish bo'yicha amalga oshirilayotgan izchil ishlar natijasida iqtisodiyotimizning agrar sektorida tarkibiy sifat o'zgarishlari yuz bermoqda.

Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash deganda, mintaqada mavjud resurslardan unumli va oqilona foydalanish orqali fan-texnika yutuqlariga asoslangan holda, aholini oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish demakdir. Shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlarining sanitariya, veterinariya, fitosanitariya normalari va qoidalariga mosligi tushuniladi.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi- O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy xavfsizligining muhim segmenti bo'lgan oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning asosiy yo'nalishlari va mexanizmini takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Bitiruv malakaviy ishining vazifasi: Bitiruv malakaviy ishining maqsadidan kelib chiqqan holda ishda quyidagi vazifalarni hal etish ko'zda tutilgan:

➤ turli iqtisodiy qarashlar va uslubiy yondashuvlarni tahlil qilish va umumlashtirish asosida jahon xo'jaligi aloqalarining globallasuvi sharoitida mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning mohiyati va iqtisodiy ahamiyatini ochib berish;

➤ mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning mezon va ko'rsatkichlarini ilmiy jihatdan asoslash hamda uning tashqi iqtisodiy omillarini tahlil qilish;

➤ tizimli yondashuv asosida O'zbekiston Respublikasida oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash sohasida mavjud muammolarni aniqlash va ularni hal etish yuzasidan ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar tayyorlash;

➤ oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha jahon amaliyotida qo'llaniladigan mexanizm va dastaklarni tahlil etish asosida ulardan O'zbekiston sharoitida foydalanish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

➤ mamlakat iqtisodiyotining barqaror o'sishi va tashqi iqtisodiy aloqalarning jadallashib borishi sharoitida oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqot ob'ekti: Tayloq tumanida faoliyat yuritayotgan fermer xo'jaliklari

Tadqiqot predmeti: oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha jahon amaliyotida qo'llaniladigan mexanizm va dastaklarni tahlil etish asosida ulardan Tayloq tumanida foydalanish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

Bitiruv malakaviy ishimning tarkibiy tuzilishi. Bitiruv malakaviy ish: kirish, uchta bob, xulosa va takliflar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat.

I - Bob. Milliy iqtisodiyotni rivojlanishida oziq-ovqat sanoatining o‘rni

1.1. Oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashning o‘ziga xos xususiyatlari

Oziq-ovqat xavfsizligi insonlarning istalgan paytda faol va sog‘lom turmush tarzi uchun zarur bo‘lgan elementlarga boy va xavfsiz (sifati, soni va xilma-xilligi bo‘yicha) ovqatlanish imkoniyatiga ega bo‘lish demakdir.

Shu boisdan qayd etish lozim, ayni globallashtirish jarayonida mamlakatlarda aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan sifatli va sotib olish qobiliyati doirasida ta’minlash muhim masalaga aylandi.

Bu borada mamlakatimiz birinchi prezidenti I.A.Karimov “Yer yuzi aholisining tez ko‘payib borayotgani bilan oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining o‘shish imkoniyatlari cheklangani o‘rtasidagi tafovut oziq-ovqat dasturini hal etish masalasi yildan-yilga keskinlashib borayotganining asosiy sababi ekani haqida bugun ortiqcha gapirishning hojati yo‘q, deb o‘ylayman. Sodda qilib aytganda, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining o‘shishi aholi soni va ehtiyojlarining o‘shidan ortda qolmoqda ¹” deya ta’kidlab o‘tgan ushbu masalaning dolzarb ekanligini ko‘rsatib beradi.

Fikrimizcha, oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashga qaratilgan chora-tadbirlar davlatning nafaqat agrar sohadagi, balki siyosiy va iqtisodiy yo‘nalishdagi faoliyatlari bilan ham bevosita bog‘liqdir. 1974 yilda Jahon oziq-ovqat sammitida ushbu iqtisodiy kategoriya tushunchasi birinchi bor taklif qilingan, “barqaror oziq-ovqat iste’molini ta’minlash va ishlab chiqarish hajmi, narxlarning o‘zgarishini to‘ldirish uchun muhim oziq-ovqatlar bo‘yicha dunyoda yetarli jamg‘armalari doimiy mavjudligini bildiradi”².

Haqiqatan ham, bugungi kunda yer yuzida aholi soni oshgani sayin, oziq-ovqatga bo‘lgan talab ham kuchaymoqda. Bu esa, o‘z-o‘zidan, oziq-ovqat ishlab

¹ Birlashgan Millatlar Tashkiloti. 1975. Jahon oziq-ovqat konferensiyasi hisoboti, Rim, 5–16 noyabr 1974 yil. Nyu-York (United Nations. 1975. Report of the World Food Conference, Rome 5–16 November, 1974. New York)

² FAO. 1999. Qishloq xo‘jaligi bozorlari va oziq-ovqat xavfsizligiga Urugvay raundining ta’siri bahosi. CCP 99/12 Rev. Rim, FAO. oktyabr 1999.

chiqaruvchi korxonalarining ko'payishiga sabab bo'ladi. Ana shunday vaziyatda sifatsiz hamda inson sog'lig'iga xavf soluvchi oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish yoki yetishtirish avj olishi ehtimoldan xoli emas ³.

Mamlakatimizda ushbu sohada keng ko'lamli ishlar istiqloqlarning ilk kunlaridanoq amalga oshirildi. Xususan, 1997 yil "Oziq-ovqat mahsulotining sifati va xavfsizligi to'g'risida"gi Qonunning qabul qilinishi buning yaqqol misolidir. Zotan, oziq-ovqat xavfsizligi sifatining xavfsizligi va uning ta'minlanganlik darajasi, zaxiralarning mavjud bo'lishi kabi omillar orqali umumiy oziq-ovqat barqarorligi ta'minlanadi. Ya'ni oziq-ovqatning inson salomatligiga bo'lgan salbiy ta'sirini tartibga solish borasidagi tadbirlar birinchi navbatdagi masala bo'lsa, ikkinchidan, oziq-ovqat yuzasidan boshqa mamlakatlarga qaram bo'lishning oldini olishdir.

Davlat darajasida oziq-ovqat xavfsizligiga erishish uchun mamlakat zarur oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishi yoki import qilishi, saqlashi, taqsimlashi va oziq-ovqatni adolatli hammabop bo'lishini ta'minlashi lozim ⁴.

Taqqoslash sifatida aytish mumkinki, O'zbekistonda don va sabzavot mahsulotlarini iste'mol qilish boshqa rivojlanayotgan davlatlar darajasida, don ekinlarini yetishtirish bo'yicha esa rivojlangan davlatlardan ham ko'p ekanligini ko'rish mumkin. Aksincha, baliq mahsulotlarini iste'mol qilish yuqori hajmda emasligi, ushbu sohada muayyan chora-tadbirlarni amalga oshirishni vaziyat taqozo etmoqda.

Shu boisdan, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni yuqoridagi holatlardan kelib chiqib, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlovchi ko'rsatkichlardan foydalanish maqsadga muvofiq.

Oziq-ovqat xavfsizligi holatini rasman belgilash uchun FAO (BMT qoshidagi xalqaro oziq-ovqat va qishloq xo'jalik tashkiloti) bir qator ko'rsatkichdan foydalanadi⁵:

³ O'zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti Karimov I.A. "O'zbekistonda Oziq-ovqat dasturini amalga oshirishning muhim zaxiralari" mavzusidagi xalqaro konferensiyaning ochilish marosimidagi nutqi. <http://www.press-service.uz/> saytidan olindi

⁴ Musayev D., Yaxshilikov Yo., Yusupov Q. "O'zbekistonda oziq-ovqat xavfsizligi". – Toshkent: "Mega Basim", 2010. – 76 bet.

1. Jahondagi g'alla jamg'armalarining iste'molga nisbatan ko'rsatkichi: jahonda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash uchun o'rtacha 17–18 foiz talab etiladi.
2. Jamg'armalarning beshta asosiy eksportyorga nisbatan talablari ko'rsatkichi.
3. Beshta asosiy eksportyorlarning o'z ichki iste'moli hamda eksportga nisbatan zaxiralari.
4. Uch asosiy importyorlarda donli ekinlar hosili (Xitoy, Hindiston va MDH mamlakatlari).
5. Kam daromadli va oziq-ovqat tanqis bo'lgan mamlakatlarda (KDOTM) donli ekinlar yetishtirilishi hajmi.
6. Xitoy va Hindistondan boshqa KDOTMlarda yetishtirilgan mahsulot.

1.2. O'zbekistonda oziq-ovqat sanoatini rivojlantirish omillari

O'zbekiston mustaqillikning dastlabki yillaridan ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga asoslangan huquqiy demokratik davlat qurish, barcha sohalarda keng ko'lamli izchil islohotlarni amalga oshirish bo'yicha o'zining tadrijiy taraqqiyot yo'lini tanladi. Bunda aholini to'g'ri ovqatlanish me'yorlariga mos, yuqori sifatli va xavfsiz oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yo'nalishlaridan biri etib belgilandi. Shu munosabat bilan fermer xo'jaliklarini rivojlantirish asosida iqtisodiy islohotlarni kuchaytirish, qishloqda ishlab chiqarish munosabatlarini takomillashtirish, boshqaruvning bozor tamoyillariga mos tashkiliy tuzilmasini joriy etish, qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarning mustaqilligini kengaytirish va ularning huquqiy himoyasini ta'minlashga doir chora-tadbirlar amalga oshirildi.

O'zbekiston Respublikasini birinchi prezidenti 1991 yil 29 noyabrda qabul qilingan "Respublikada dehqon (fermer) xo'jaliklarini yanada mustahkamlash va

⁵ Muslimbekova D. "Oziq-ovqat xavfsizligi – muhim masala".//”Mening mulkim-Chastnaya sobstvennost”. – Toshkent, 2014. 08 avgust

tadbirkorlik faoliyatini davlat yo‘li bilan qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida”gi farmoni mamlakatimizda fermerlik harakatini rivojlantirish uchun asos bo‘lib xizmat qildi. Bu borada qabul qilingan Yer kodeksi, “Fermer xo‘jaligi to‘g‘risida”, “Dehqon xo‘jaligi to‘g‘risida” va “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida”gi qonunlar fermerlikni rivojlantirish, ularning iqtisodiy hamda moliyaviy mustaqilligini ta‘minlash uchun mustahkam huquqiy asos yaratdi.

Bundan tashqari, ishlab chiqarish hajmini kengaytirish, fermer xo‘jaliklari samaradorligi va rentabelligini izchil oshirishni ta‘minlaydigan moddiy-texnik bazani mustahkamlash, yer maydonlarini optimallashtirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirildi. Ayni paytda qishloqlarda fermer xo‘jaliklariga keng turdagi xizmatlar ko‘rsatadigan zamonaviy ishlab chiqarish va bozor infratuzilmasi shakllantirilmoqda.

Mamlakatimiz birinchi prezidenti 2012 yil 22 oktyabrdagi “O‘zbekistonda fermerlik faoliyatini tashkil qilishni yanada takomillashtirish va uni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni mamlakatimizda qishloq xo‘jaligi tarmog‘ini isloh etishning mantiqiy davomi bo‘ldi. Mazkur hujjat fermer xo‘jaliklarining samaradorligini oshirish, huquq va vakolatlarini kengaytirish, yer-suv resurslari va yaratilgan ishlab chiqarish salohiyatidan unumli foydalanish, qishloqni jadal rivojlantirish va obodonlashtirish, aholi bandligi hamda farovonligini ta‘minlashda ularning rolini kuchaytirish imkonini bermoqda. Farmonga muvofiq, tashkil qilingan O‘zbekiston Fermerlari kengashi, viloyatlar va tumanlar fermerlar kengashlari davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati idoralari, tayyorlov, ta‘minot va xizmat ko‘rsatish tashkilotlari bilan munosabatlarda, shuningdek, sudlarda ish ko‘rib chiqilayotganda fermer xo‘jaliklarining huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilmoqda.

Chunonchi, O‘zbekistonda 1990 yilda aholining oziq-ovqat, asosan go‘sht, sut va qandolatchilik mahsulotlariga ehtiyoji import hisobiga qondirilgan bo‘lsa, unda bugungi kunda aholining ushbu mahsulotlarga ehtiyoji 96 foizga respublikada ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar hisobiga qondirilmoqda.

Ayni paytda O‘zbekistonning har bir fuqarosi bir oy ichida 40 turdagi oziq-ovqat mahsuloti sotib olishi mumkin va bunga o‘rtacha ish haqining 40 foizini sarflaydi.

“Qishloq xo‘jaligi xom ashyosini chuqur qayta ishlash, yetishtirilgan mahsulotlarni saqlash infratuzilmasini rivojlantirishga ham alohida e‘tibor qaratilmoqda. O‘tgan yili qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlaydigan korxonalar, yangi sovitish kamerasi tashkil etildi va modernizatsiya qilindi.. Bu esa, yil davomida narxlarning mavsumiy keskin oshib ketishiga yo‘l qo‘ymasdan, aholini asosiy turdagi qishloq xo‘jaligi mahsulotlari bilan uzluksiz ta‘minlash, ushbu mahsulotlarni eksport qilishni kengaytirish, narx-navo barqarorligini saqlash imkonini bermoqda”⁶.

Mustaqillik yillarida go‘sht iste‘moli aholi jon boshiga 1,3 marotaba, sut va sut mahsulotlari 1,6 barobarga, qayta ishlangan meva-sabzavot mahsuloti iste‘moli esa deyarli 4 barobarga oshgan. Bu xalqimiz turmush tarzining o‘sib borayotganidan guvohlik beradi.

Tahlillarning ko‘rsatishicha, respublikada, umuman olganda, iste‘molning minimal darajasi asosan mahalliy ishlab chiqarish hisobiga ta‘minlanmoqda.

Oziq-ovqat sanoati korxonalarida ishlab chiqarayotgan mahsulotlar turi ham sezilarli darajada kengaydi. Masalan, soya, maxsar, kungaboqar kabi tarkibida moy bo‘lgan o‘simliklarni yetishtirish uchun ajratilayotgan yer maydonlaridan olingan hosil hisobiga yog‘- moy korxonalarida tomonidan yiliga o‘rtacha 95 ming tonna xom ashyo tayyorlanib, qayta ishlanmoqda. Non va non mahsulotlari turi ham ko‘paydi. Ayni paytda mamlakatimiz korxonalarida uch yuzdan ziyod turdagi non mahsulotlari tayyorlanmoqda.

Oziq-ovqat sanoati korxonalarida tomonidan 3 mingdan ko‘proq nomdagi turli oziq-ovqat mahsuloti ishlab chiqarilmoqda va oziq-ovqat mahsulotlari assortimenti har yili 80 ta yangi nom bilan boyib bormoqda.

⁶ I.A.Karimov. “Bosh maqsadimiz – mavjud qiyinchiliklarga qaramasdan, olib borayotgan islohotlarni, iqtisodiyotimizda tarkibiy o‘zgarishlarni izchil davom ettirish, xususiy mulkchilik, kichik biznes va tadbirkorlikka yanada keng yo‘l ochib berish hisobidan oldinga yurishdir.”Xalq so‘zi”, 2016 yil 16 yanvar.

Ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning sifatini ta'minlash maqsadida oziq-ovqat sanoatining korxonalari ISO-9001 xalqaro sifat standartlari va tayyor mahsulotlar xavfsizligi xalqaro sifat standarti ISO-22000 joriy qilingan.

Mahalliy oziq-ovqat va xom ashyo ishlab chiqarishni barqaror rivojlantirish, bozorga xavfsiz oziq-ovqat mahsulotlari va iste'mol me'yorlarida o'rnatilgan assortimentda yetkazish bo'yicha choralar amalga oshirilmoqda. Bu choralar respublikada oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligini oshirishga ko'maklashmoqda.

Real sektor korxonalarida ishlab chiqarishni modernizatsiya va diversifikatsiya qilishni rag'batlantirish hamda qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirilgan chora-tadbirlar oziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarishning o'sishini ta'minladi. 2015 yilda oziq-ovqat sanoatida ishlab chiqarish umumiy hajmi 16729,2 mlrd. so'mni, o'sish sur'ati esa o'tgan yilga nisbatan 114,4 foizni tashkil etdi.

2014 yilga nisbatan mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi shakar sanoatida – 23,7 foizga, meva va sabzavot sanoatida – 17,9 foizga, go'sht va sut sanoatida – 5,7 foizga, yog' va moy sanoatida – 3,7 foizga o'sgani kuzatildi.

Hisobot davrida, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan, tarmoqning yirik korxonalari tomonidan ishlab chiqarish hajmlari quyidagi mahsulot turlari bo'yicha oshirildi: go'sht konservalari – 8,0 martaga, go'sht va o'simlik konservalari – 2,0 martaga, shinni (melassa) – 40,9 foizga, margarin va spredlar – 16,5 foizga, marmelad, jele – 20,2 foizga, uzoq saqlanmaydigan qandolat mahsulotlari – 17,8 foizga, shakar – 16,3 foizga, uzoq saqlanmaydigan boshqa non mahsulotlari – 14,0 foizga, ishlov berilgan suyuq sut – 11,4 foizga, saryog' – 7,9 foizga, bug'doy noni – 6,3 foizga.

Shuningdek, 2014 yilga nisbatan, spirt nastoykalari (113,4 foiz), pivo (105,3 foiz) ishlab chiqarish hajmi oshdi.

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining asosiy qismi Toshkent shahri (tarmoqning umumiy hajmidagi ulushi 22,2 foiz), Toshkent (18,2 foiz), Samarqand (13,4 foiz) va Farg'ona (6,5 foiz) viloyatlari korxonalari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Tarmoqdagi kichik tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan mahsulot ishlab chiqarish hajmining 2014 yilning shu davriga nisbatan 14,3 foizga oshishi ta'minlandi hamda ularning oziq-ovqat sanoati jami hajmidagi ulushi 69,0 foizni tashkil etdi.

2015 yilda respublikada 1501 ta oziq-ovqat sanoati korxonalari yangidan tashkil qilingan, 2016 yil 1 yanvar holatiga respublikada tarmoqning 8711 ta korxonasi faoliyat ko'rsatmoqda.

Mamlakatimizda faoliyat ko'rsatayotgan Oziq-ovqat sanoati korxonalari uyushmasi aholiga sanoat mahsulotlari, iste'mol tovarlari, o'simlik yog'i, margarin, mayonez, shakar va boshqa mahsulotlar yetkazib berayotgan yuzdan ziyod korxonani o'z tarkibida birlashtirgan. Ular ishlab chiqarayotgan mahsulotlarning bir qismi eksport qilinayotir.

Ayni paytda tarmoq korxonalari sohada iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish, oziq-ovqat mahsulotlari turini kengaytirish va ichki bozorni yurtimizda ishlab chiqarilayotgan sifatli tovarlar bilan to'ldirish ishlarini izchil davom ettirmoqda. Ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash bo'yicha investitsiya loyihalarining amalga oshirilishi bu borada muhim omil bo'layotir.

2015 yilda hududlarda oziq-ovqat sanoatini rivojlantirish uchun 1 ming 660 dan ziyod investitsiya loyihasi amalga oshirildi. Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlarda 21 ming 500 fermer xo'jaligi ko'p tarmoqli xo'jalikka aylantirilib, intensiv va mahalliy bog'lar barpo etildi, go'sht, sut va meva-sabzavotni qayta ishlash korxonalari ko'paydi. Chorvachilik, parrandachilik, baliqchilik, asalarichilik hamda servis xizmatlari rivojlantirildi. Natijada 96 ming 200 yangi ish o'rni yaratildi.

Bu boradagi yutuqlarni yanada oshirishda intensiv usulda mahsulot yetishtirishni keng targ'ib qilish, yerdan samarali foydalanish va mahalliy xom ashyo asosida yuqori qo'shimcha qiymatga ega mahsulotlarni ishlab chiqarish hajmini kengaytirish muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekistonning oziq-ovqat sohasidagi islohotlari Xalqaro jamoatchilik tomonidan ham keng e’tirof etilmoqda. Jumladan, BMT Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti (FAO)ning 39-sessiyasi doirasida 2015 yilda O‘zbekiston Mingyillik rivojlanish dasturi bo‘yicha yutuqlari (oziq-ovqat sohasidagi omilkorligi) uchun mukofotlandi.

Shuningdek, O‘zbekiston Britaniyaning “Economist” jurnali tomonidan 2015 yil natijalariga ko‘ra tuzilgan yangi oziq-ovqat xavfsizligi darajasi reytingida 9 pog‘onaga ko‘tarildi⁷. Bu reytingga hammasi bo‘lib 109 davlat kiritilgan. O‘zbekiston reytingdan 64-o‘rin egallab, o‘tgan yilgi natijasini 9 punktga yaxshiladi.

Oziq-ovqat xavfsizligi indeksi (The Global Food Security Index) Britaniyaning “The Economist Intelligence Unit” tahliliy kompaniyasi tomonidan AQShning “Dupon” transmilliy kompaniyasi ko‘magida chiqariladi. Tadqiqotlar 2012 yildan beri olib boriladi. Bugungi kunda bu indeks o‘zidan turli davlatlarning oziq-ovqat xavfsizligi holati ko‘rsatkichlarining eng to‘liq shaklini namoyon qiladi.

Barcha davlatlar uchta kategoriya bo‘yicha baholanadi: oziq-ovqat bilan ta‘minlanganlik va iste‘moli darajasi, ularning mavjudligi va yetarliligi, oziq-ovqat mahsulotlarining sifati va xavfsizlik darajasi. Bu mezonlardan har biri 28 ta turli ko‘rsatkichni o‘z ichiga olib, ularning qiymati ikki yillik davr davomida o‘lchangan.

Ma‘lumotlarga ko‘ra, O‘zbekiston sanab o‘tilgan mezonlar ichida “etarlilik” bo‘yicha eng ko‘p ball olgan. Tadqiqotchilar ma‘lumotlariga ko‘ra, O‘zbekistonda oziq-ovqat mahsulotlari shunchalik ko‘pki, har bir fuqaro kuniga 39 kilokalloriyadan iste‘mol qilish mumkin.

Hisob-kitob qilishda xalqaro tashkilotlar va milliy institutlar ma‘lumotlaridan foydalanilgan. Davlatning reytingdagi yuqori pozitsiyasi uning oziq-ovqat xavfsizligi yuqori darajada ekanligini bildiradi.

⁷ <http://www.dupont.com/forms/dupont-food-security>.

2015 yilgi reytingda 2014 yildagi kabi 1-o‘rinni AQSH egalladi. Yetakchi o‘ntalikka Singapur, Irlandiya, Avstriya, Niderlandiya, Shveysariya, Kanada, Germaniya, Avstraliya kiritildi.

Yana bir misol, 2015 yilning sentyabr oyida Hindistonning diplomasyindia.com axborot-tahlil portalida mamlakatimiz qishloq xo‘jaligida erishilayotgan muvaffaqiyatlar mavzusiga bag‘ishlangan maqola chop etildi ⁸.

Maqolada qayd etilishicha, O‘zbekistonda hozirgi paytda har yili 17 million tonna oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqariladi. Aholi jon boshiga deyarli 300 kilogramm sabzavot, 75 kilogramm kartoshka va 44 kilogramm uzum to‘g‘ri kelmoqda. Bu ko‘rsatkich optimal deb hisoblanadigan iste‘mol me‘yoridan uch baravar ko‘p hisoblanadi. Maqolada O‘zbekiston ayni paytda dunyoning 80 ta davlatiga 180 turdan ortiq sarxil meva-sabzavot yuborayotgani alohida ta‘kidlangan.

Shu kabi misollarni ko‘plab davom ettirish mumkin.

Bugungi kunda oziq-ovqat ishlab chiqaruvchi korxonalar oldiga ishlab chiqarish sifatini oshirish va uni boshqarishning yangi standartlari, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish masalasi qo‘yilgan. Ularning joriy etilishi istiqbolda korxonalar quvvatini yangi darajaga ko‘tarish, ishlab chiqarilayotgan mahsulot sifatini oshirish va turini kengaytirish imkonini beradi. Bundan tashqari, korxonalarni yangi qoidalar bo‘yicha sertifikatlashga tayyorlash, xodimlarni qayta o‘qitish, maxsus ta‘mirlash guruhlarini tashkil qilish va boshqa masalalar katta ahamiyat kasb etayotir.

Shu maqsadda faoliyati tugatilayotgan O‘zbekiston oziq-ovqat sanoati korxonalari uyushmasi negizida “O‘zoziqovqatsanoatxolding” xolding kompaniyasi tashkil etildi ⁹.

Respublikamiz birinchi prezidenti 2016 yil 18 fevraldagi Qaroriga ko‘ra, xolding tarkibiga oziq-ovqat, yog‘-moy va go‘sht-sut mahsulotlari ishlab chiqaruvchi aksiyadorlik jamiyati va mas‘uliyati cheklangan jamiyat shaklidagi

⁸ <http://diplomacyindia.com/development-of-agriculture-in-uzbekistan-during-the-years-of-independence-4671>.

⁹ O‘zbekiston Respublikasining birinchi prezidentining “Respublika oziq-ovqat sanoatini boshqarishni tashkil etishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2016 yil 18 fevraldagi PQ-2492-son Qarori.

176 ta korxonalar kiradi. Xolding ustav kapitali tugatilayotgan uyushma tarkibiga kirgan korxonalarining ustav jamg'armalaridagi davlat aksiyalari paketini balans qiymati bo'yicha berilishi hisobiga shakllantiriladi.

Qarorga ko'ra, yangi xolding kompaniyasi tarkibiga a'zo sifatida ko'ngilli tarzda oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalar kirishi mumkin.

Xolding negizida oziq-ovqat sanoati korxonalarini rivojlantirish, rekonstruksiya va modernizatsiyalash jamg'armasi yaratiladi.

2015-2019 yillarda oziq-ovqat sanoatida 391 ta investitsiya loyahasini amalga oshirish, kamida 1 million 300 ming tonna meva-sabzavot mahsulotlarini saqlash hajmiga ega bo'lgan 2 mingdan ortiq zamonaviy sovutish kameralarini qurish, saqlash joylarining umumiy hajmini 2 million tonnagacha yetkazish nazarda tutilmoqda.

Ko'rsatib o'tilgan chora-tadbirlarning amalga oshirilishi natijasida 2015-2019 yillarda oziq-ovqat xavfsizligini yanada mustahkamlash va oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy turlari bilan respublikaning o'zini-o'zi ta'minlashi, shuningdek, tashqi bozorlarda talab yuqori bo'lgan ushbu mahsulotlar eksportini sezilarli oshirish ta'minlanadi.

Shuningdek, "2015-2019 yillarda ishlab chiqarishni tarkibiy o'zgartirish, modernizatsiya va diversifikatsiya qilishni ta'minlash chora-tadbirlari" Dasturida 2016 yildan boshlab O'zbekistonda quritilgan oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish ko'rsatib o'tilgan ¹⁰.

Dasturga binoan nazarda tutilgan prognozlarga ko'ra, 2016 yilda 180 tonna mahsulot ishlab chiqarilsa, 2019 yilga kelib bu ko'rsatkich 2300 tonnagacha yetadi.

Umuman olganda, istiqbol yillarida mamlakatimizda ichki iste'mol bozori va aholini, ayniqsa, qish-bahor mavsumida meva-sabzavot mahsulotlari bilan barqaror ta'minlash, ularni eksport qilish ko'lamini kengaytirishga doir keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirildi, jumladan, chekka tumanlardagi savdo

¹⁰ O'zbekiston Respublikasi birinchi prezidentining "2015-2019 yillarda ishlab chiqarishni tarkibiy o'zgartirish, modernizatsiya va diversifikatsiya qilishni ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlar dasturi to'g'risida"gi 04.03.2015 yildagi PF-4707-sonli Farmoni.

tarmoqlarini ijtimoiy ahamiyatga ega oziq-ovqat tovarlari bilan uzluksiz ta'minlashga ham katta e'tibor berildi.

Xulosa qilib aytganda, so'nggi yillarda oziq-ovqat sanoatini rivojlanirishga ijobiy ta'sir etgan omillar quyidagilardir:

- sifat menejmentining xalqaro andozalari asosida jahon oziq-ovqat mahsulotlari bozorida milliy bozor ulushini oshirish;
- zamonaviy agrotexnologiyalarni jalb qilish bo'yicha loyihalarni amalga oshirish borasida xalqaro moliya institutlari va investorlar bilan hamkorlik qilishni rivojlantirish;
- meva-sabzavot ekinlari va uzum hosildorligini oshirish, infratuzilma va logistika tizimlarini takomillashtirish;
- oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishni kengaytirish, sohaga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, yuqori texnologiyali uskunalarni joriy etish, eksport salohiyatini oshirishga oid zarur qo'shimcha choralar ko'rish va boshqalar.

O'zbekistonda hayotga tatbiq etilayotgan iqtisodiy islohotlar, oziq-ovqat xavfsizligini, chunonchi, qishloq xo'jaligini tubdan isloh etish va oziq-ovqat sanoatini rivojlantirish hisobidan ta'minlash bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarni quyidagi yo'nalishlarda izchil davom ettirish maqsadga muvofiqdir:

- oziq-ovqat mahsulotlarini jahon bozori talablari darajasida tayyorlash uchun korxonalariga zamonaviy texnologiyalar, sifatni boshqarishning yangi standartlarni joriy etish;
- savdo logistika markazlari tashkil etish;
- yarim tayyor va tayyor mahsulotlar, idishlar, qadoqlash materiallari ishlab chiqaruvchi yangi korxonalar tashkil etish;
- oziq-ovqat mahsulotlarini vakuum usulida halqaro talablar darajasidagi shisha idishlarda qadoqlash usulini kengaytirish va boshqalar.

Bu, o'z navbatida, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning uzviy qismi sifatida oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, ulkan ishlab chiqarish salohiyatiga ega agrosanoat kompleksini jadal rivojlantirish uchun barcha zarur sharoitlar yaratish

va shu tariqa mamlakatimiz farovonligi hamda barqarorligining kafolati bo‘lib xizmat qiladi.

1.3. Oziq-ovqat mahsulotlari iste‘moli va unga ta’sir etuvchi omillar

O‘zbekistonda iqtisodiyotni modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash sharoitida uning tamoyillariga to‘la-to‘kis amal qilishga katta e’tibor berilmoqda. Bu esa, o‘z navbatida, aholining bozor sharoitida ishlash va yashash tartib-qoidalari to‘g‘risidagi tasavvurlarini ham o‘zgarib borishiga olib kelmoqda. Shu bilan birga, bozor iqtisodiyotining asosiy g‘oyalari tamoyillari, talablarini amalga oshirish imkoniyatlari ham kengayib bormoqda.

Respublikamizda bozor tovarlar bilan to‘yinib, bozorning barqaror tuzilmasi va infratuzilmasi shakllanib kelmoqda, xo‘jalik sub’ektlarining mustaqilligi kengayib, tadbirkorlikning rivojlanishiga qulay muhit yaratilmoqda. Bularning hammasi bozor munosabatlarining ob’ektiv qonuniylik va demokratik asoslarining kuchayib borishi va natijada bozorning yangi bosqichiga o‘tish uchun shart-sharoit yaratilayotganidan dalolat beradi. Bozorning bu yangi bosqichi haridor bozori va sifat bozori bo‘lib, bu bosqichda to‘la mazmundagi tovar iste‘molchilar tasavvuriga mos keladigan tushunchalar bilan baholanadi. Tovarni iste‘molchi sifatli deb qabul qilgan taqdirda uning harid qilinishi sodir bo‘ladi.

Iste‘molchi aniq tovar sifati, o‘zi uchun muhim bo‘lgan alohida xossalarini boshqa ishlab chiqaruvchi yoki sotuvchining aynan bir xil tovarning xuddi shunday xossalari bilan taqqoslab, uning ahamiyati, qadr-qimmatini to‘g‘risida xulosa chiqaradi. Bu esa korxonalar, firma uchun eng katta yutuq hisoblanadi.

Shunday qilib bozor, ishlab chiqarilgan, taklif etilayotgan va sotilayotgan tovarlar zamonaviy talabga naqadar mos, ularga sarf qilingan harajatlar naqadar foydali ekanligini baholovchi asosiy mezondir. Prezident Islom Karimov aytganlaridek, “...bugun bozor qonunlariga asoslanuvchi yangi iqtisodiyot yaratayapmiz. Bunda mahsulot talab va taklifni hisobga olgan holda, raqobatbardosh bo‘lishi va u umum qabul qilingan standartlarga javob berishini

nazarda tutgan holda ishlab chiqarilishi lozim” . Jumladan, “...xalqimizni oziq-ovqat mahsulotlari bilan to‘liq ta‘minlashga zamin tug‘dirdi, kerak bo‘lsa, ularni chet mamlakatlarga eksport qilishga imkon bermoqda.”.

Shu boisdan har bir korxonada, firma, tadbirkor o‘z faoliyatini ana shu talablar nuqtai nazaridan tashkil etishi va amalga oshirishi, respublika iqtisodiyotida marketing elementlaridan samarali foydalanishi maqsadga muvofiqdir. Masalan, U.Breddik marketing strategiyasining quyidagi elementlarini qayd qiladi:

- haridorlarning ehtiyojlarini aniqlash;
- raqobatchilarning strategiyasini tushunish;
- mahsulotlar ishlab chiqarish va ularning bozori;
- narx-navoning hosil bo‘lishi;
- tovarlar harakati; ta‘minlash.

Shuningdek, K.Berri, A.Pulfordlar marketing strategiyasining quyidagi jihatlari ko‘rsatib o‘tadilar: bozorlar iste‘molchilar, kuch-raqobat ustunligi, faoliyat kengligi, maqsadi, resurslar, vaqt.

Har qanday mahsulot va xizmatlarga bo‘lgan talabning shakllanishiga bir necha omillar ta‘sir ko‘rsatadi. Shuningdek, oziq-ovqat mahsulotiga bo‘lgan talabning shakllanishiga ham qo‘yidagi omillar mavjud.

1. Demografik omillar – aholi soni, uning tarkibi, jinsi, yoshi, oila soni va ularning o‘rtacha ko‘rsatkichlarining o‘zgarishi va h.k.
2. Iqtisodiy omillar – aholining pul daromadlari va ularning ijtimoiy guruhlariga taqsimlanishi, chakana savdo baholari, tovarlar taklifi hajmi va tarkibi, aholini ijtimoiy himoya qilish fondlari, aholining shaxsiy xo‘jaliklaridan olayotgan mahsulotlari va boshqalar.
3. Tabiiy iqlim sharoitlari – yil davomida fasllarning uzun-qisqaligi, hududning reliefi va boshqalar.
4. Ijtimoiy omillar – aholining ijtimoiy va mamlakatlar bo‘yicha tarkibi, ularning bilim va madaniy saviyalari, tarixiy urf-odatlar, an‘analari, milliy bayramlari va boshqalar.

Odamning yashashi va komil inson bo'lib yetishishi uchun ular turli narsalarga ehtiyoj sezishadi. Ba'zi bir ehtiyojlarning kamayishi bilan ularning o'rniga boshqa bir yangi narsaga ehtiyoj paydo bo'ladi. Shuningdek, oziq-ovqatga bo'lgan ehtiyoj aholi sonining o'sishiga ham bog'liq, bu esa, demografik omillar sirasiga kiradi.

Aholi sonining o'sishi oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojning o'sishiga olib kelmoqda. Shuning uchun O'zbekiston Respublikasining aholi talabi, asosan, mahalliy oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlashga qaratilgan. Shu nuqtai nazardan, maqoladagi asosiy vazifalardan biri sifatida oziq-ovqat mahsulotlarining me'yorga nisbatan iste'molini o'rganish va unga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni tahlil qilishga qaratilishi lozim.

Umuman, bugungi kunda mamlakatimizning oziq-ovqat sanoatida tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan ishlab chiqarilayotgan bir qancha mahsulotlar tabiiyligi, arzonligi, qulayligi va sifati bilan ajralib turadi. Biroq, bu mamlakatimiz oziq-ovqat sanoati tarmoqlarida muammolar yo'q va hamma imkoniyatlar ishga solindi, degani emas. Chunki, mazkur mahsulotlarni mamlakatimiz aholisiga sotish bilan birga, xorijiy mamlakatlarga ham eksport qilinadi. Zero, ekologik toza, sifatli mahsulotlarga jahonning barcha davlatlarida ham ehtiyoj katta. Faqat ularga mahsulotni yetkazib berish mexanizmlarini yo'lga qo'yish kifoya. Bu esa, sohani yanada jadal rivojlantirish uchun katta imkoniyatdir. Ishdagi tahliliy natijalar shuni ko'rsatadiki, oziq-ovqat sanoatida tadbirkorlik faoliyatining rivojlanishi hisobiga viloyatda mehnat resurslarini yangi ish o'rinlari bilan ta'minlash yanada ortadi. Bugungi kunda bu sohada mehnat qilayotgan ishchi-xodimlar soni ham sezilarli darajada ko'payib bormoqda.

Tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan yetishtirilayotgan poliz ekinlari va sabzavot mahsulotlarining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, ularni yetishtirish va sotish davridan emas, balki iste'molchi talabini hisobga olgan holda, ekinlar seleksiyasini yaratish va ularni ekish vaqtdan oxirgi iste'molchiga yetib borishigacha bo'lgan bo'g'inlari yaratilishi kerak. Buning uchun bozorga tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan ishlab chiqarilgan poliz ekinlari va sabzavot

mahsulotlarini yetkazib berish bilan bog‘liq muammolarni hal qilishda quyidagilarga alohida e‘tibor berish zarur:

- tabiiy-iqlim sharoitlari va tashkiliy-iqtisodiy salohiyatdan yetarli darajada samarali foydalanish;

- poliz ekinlari va sabzavot mahsulotlari yetishtirish bo‘yicha ixtisoslashgan xo‘jaliklar va ulgurji bozorlar tashkil etish;

- poliz ekinlari va sabzavot mahsulotlari saqlash uchun zamonaviy muzlatkichlar bilan ta‘minlash;

- poliz ekinlari va sabzavot mahsulotlarini yetishtirishning intensiv texnologiyasiga o‘tish hamda texnologik xususiyatlarga ega bo‘lgan yuqori hosilli, kasallikka chidamli, mexanizatsiyalashgan qayta ishlovga yaroqli navlarni yaratish.

II-Bob. Tayloq tumanida oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlanganligining holati va tahlili

2.1. Tayloq tumaning ijtimoiy – iqtisodiy tavsifi

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohatlar, mamlakatimiz rahbari va hukumatimiz tomonidan aniq va puxta ishlab chiqilgan milliy dasturlarning amalga oshirilishi, davlatimiz tomonidan tadbirkorlarga yaratilib berilayotgan qulay shart-sharoitlar, imkoniyatlar, tegishli imtiyozlar tufayli Tayloq tumanida ham barcha iqtisodiy ko'rsatkichlarda rivojlanish sur'atlari kuzatilmoqda.

Tayloq tumani - Samarqand viloyatidagi tuman. 1992 yil 9 aprelda tashkil etilgan. Viloyatning janubiy sharqiy qismida. Shimoldan Jomboy va Bulung'ur, janubdan va sharqdan Urgut, g'arbdan Samarqand tumanlari bilan chegaradosh. Maydoni 0,28 ming km². Aholisi 183,9 ming kishi. Tumanda 8 ta qishloq fuqarolari yig'ini (Adas, Bog'izag'on, Jumabozor, G'ulba, Madaniyat, Sochakibolo, Tepaqishloq, Toyloq, Qo'rg'oncha) bor. Markazi — Toyloq shahri.

Tabiati Tuman hududi Zarafshon daryosining hozirgi davr qayirlari hamda ko'hna qayir (terrasa)laridan iborat bo'lib, asosan, tekislik. Zarafshon daryosi keltirgan oqindi (qum, shag'altosh, loyqalar)dan tarkib topgan. Ular ustini 5–10 m qalinlikdagi lyoss yotqiziqlari qoplagan. Tuman hududidan Markaziy magistral, Darg'om kanallari va Zarafshon daryosi, Krrasuv soyi oqib o'tadi. Tuprog'i bo'z, o'tloqbo'z, o'tloqbotqoq va allyuvial tuproq. Foydali qazilmalari, asosan, shag'altosh, qum va lyosslardan iborat. Iqlimi keskin kontinental. Iyulning o'rtacha trasi 25,9°, yanvarniki 0,2°. Vegetatsiya davri 215—230 kun oralig'ida. Yiliga 320–350 mm yog'in tushadi.

Tuman hududidagi qayirlarda to'qayzorlar mavjud bo'lib, bu yerda yovvoyi jiyda, tol, qamish, turang'il o'sadi. Tuman hududidagi ekin ekilmagan yerlarda ajriq, yulg'un, shuvoq, bug'doyiq, yantoq, yalpizlar uchraydi. Qushlardan mayna, chumchuq, qarg'a va boshqa bor.

Aholisi, asosan, o'zbeklar, shuningdek, tojik, rus, tatar, koreys va boshqa millat vakillari ham yashaydi. Aholi zichligi 1 km²ga 480 kishi.

Xo'jaligi. Tuman xo'jaligi, asosan, qishloq xo'jaligi. mahsulotlarini yetishtirish va ularni qayta ishlashga ixtisoslashgan. Sanoatida ta'mirlash, aloqa va aholiga maishiy xizmat ko'rsatish korxonalari, meva konserva zavodlari bor.

Toyloq tumanida yirik, o'rta, kichik korxonalar hamda mikrofirmalar faoliyat ko'rsatib turibdi. Meva konservalari, non, qandolatchilik va sharob mahsulotlari, salqin ichimliklar, qurilish materiallari ishlab chiqariladi.

Tumandagi ixtisoslashgan mikrofirmalar tomonidan aholiga maishiy xizmat ko'rsatish (avtomobil, muzlatkich, radio, televizorlarni ta'mirlash va boshqalar) ishlari amalga oshiriladi. 2 ta qo'shma korxonalar, shu jumladan, Uzbekistan—AQSH "Adas—Agro Invest" (uzumni qayta ishlaydi), O'zbekiston—Rossiya "TonigriN" (mevani qayta ishlaydi) mahalliy xom ashyo asosida ishlamoqda.

Qishloq xo'jaligining yetakchi tarmog'i — dehqonchilik. Tumanda 5620 ga yerga g'alla, 1994 ga yerga sabzavot, 307 ga yerga kartoshka, 2697 ga yerga ozuqa ekinlari ekiladi. Ko'p yillik daraxtzorlar 4686 ga (shundan, bog'lar 1446 ga, tokzorlar 2490 ga, tutzorlar 692 ga).

Tayloq tumanining ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlari Samarqand viloyatining o'rtacha ko'rsatkichlari bilan taqqoslangan qiyosiy ma'lumoti 2.1.1-jadvalda keltirilgan

2.2.1-jadval

**Tayloq tumanining asosiy ijtimoiy-iqtisodiy ko‘rsatkichlar
tahlili 2016-yil 1yanvar holatiga**

Ko‘rsatkich nomi	O‘lchov Birligi	Hajmi			O‘tgan yilga nisbatan o‘shir sur‘ati, %		
		2013 y.	2014 y.	2015 y.*	2013 y.	2014 y.	2015 y.*
Sanoat mahsulotlari	<i>mlrd. so‘m</i>	119,8	142,4	194.8	113,0	115,8	108.5
Xalq iste‘mol mollari ishlab chiqarish	<i>mlrd. so‘m</i>	68,9	106,9	144.3	104,1	130,3	116.2
Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari	<i>mlrd. so‘m</i>	337,0	399,5	428,1	107,0	107,5	106,2
Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi	<i>mlrd. so‘m</i>	59,3	74,4	113.1	100.8	101.6	149.7
<i>shu jumladan chet el investitsiyalari</i>	<i>ming AQSH doll.</i>		1800	1822.2			149.7
<i>shundan to‘g‘ridan-to‘g‘ri chet el investitsiyalari</i>	<i>ming AQSH doll.</i>		1800	1822.2			149.7
Qurilish-pudrat ishlari	<i>mlrd. so‘m</i>	61,9	77,6	105.7	111.5	112.3	148.5
Chakana tovar aylanmasi	<i>mlrd. so‘m</i>	79,9	104,3	187.4	113.9	124.7	114.9
Aholiga pullik xizmatlar ko‘rsatish	<i>mlrd. so‘m</i>	58.7	78.1	50	121.5	118	108.9
Tashqi savdo aylanmasi	<i>ming AQSH doll.</i>	75210.0	96228.3	126063.3	116.8	127.9	131.0
Eksport	<i>ming AQSH doll.</i>	21317.9	32602.6	67094.5	106.6	152.9	2.1m
Import	<i>ming AQSH doll.</i>	53892.1	63625.7	58968.8	121.4	118.1	92.7
Qo‘shma korxonalar soni	<i>birlik</i>	5	7	5	-	-	-

Yuqoridagi 2.1.1-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, tumanda avvalo sanoat (108.5 foiz), qurilish (148.5), shuningdek, chakana savdo 14,9 foizga, pulli xizmat ko'rsatish hajmi 8,9 foizga ko'payishi hamda maqsadli davlat dasturlarini amalga oshirish hisobiga o'sish ko'rsatkichlariga erishildi. 2015 yilda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 194.8 mlrd. so'mni tashkil etib 2013 yilga nisbatan 108.5 foizga o'sgan.

Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi tahlil qilingan yillarda 1 foizga yaqin o'sgan. Ammo shunga qaramsdan tumanda 2015 yilda Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish 2013 yilga nisbatan 106,2 foiz o'sgan. Sanoat mahsulotlari va iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmlarining o'sishi keyingi yillarda eksport hajmini o'sishini ham ta'minlashi zarur edi, ammo jahon yuz bergan moliyaviy-iqtisodiy inqiroz importchi mamlakatlarning import qobiliyatini pasaytirgan.

Tashki savdo aylanmasi 2014 yilda 96228.3 dollarni tashkil qildi va 2013 yilga nisbatan 127.9 foizga ko'paydi. Jumladan: Eksport miqdori 2015 yilda 67094.5 dollarni tashkil etib, 2014 yilga nisbatan 2.1 foizni tashkil etdi. Import miqdori 2015 yilda 58968.8 dollarni tashkil etib, 2014 yilga nisbatan 92.7foiz bo'ldi.

Tayloq tumanida asosida asosan qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqariladi. 2013-yilda tumanda 337,0 mld. so'mlik mahsulot ishlab chiqarilgan bulib 2014-yilda 399,5 mld. so'mlik mahsulot ishlab chiqarilgan. 2013-yilga nisbatan 2014 yilda 107,5 foizga oshgan. (2.1.2.-jadval)

**Tayloq tumanida 2013-2015 yillar qishloq xo'jaligida mahsulot
ishlab chiqarish o'sish sur'atlari**

Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	Miqdori		
		2013 yil	2014 yil	2015 yil
Qishloq xo'jalik mahsuloti ishlab chiqarish	<i>mlrd. so'm</i>	337,0	399,5	428,1
O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati	%	107,0	107,5	106,2
<i>shu jumladan:</i>				
qishloq xo'jalik korxonalarida	<i>mlrd. so'm</i>	0,7	2,1	2,2
fermer xo'jaliklarida	<i>mlrd. so'm</i>	158,0	193,2	202,1
dehqon xo'jaliklarida	<i>mlrd. so'm</i>	178,3	204,2	223,8

manba: statistika malumotlari

Tayloq tumanida 2013 yilda chorvachilik mahsulotlari yetishtirish bo'yicha jami 90049 bosh yirish shoxli molar yetishtirilgan bulib shulardan sigirlar 42034 boshni tashkil qiladi. 2015-yilda bu ko'rsatkich 95763 boshni tashkil qilgan. Shulardan sigirlar 42521 boshni tashkil qildi. 2013-yilga nisbatan 2015-yilda 5714 boshga ko'paygan. 2013-yilda quy va echkilar 39388 boshni tashkil qilgan bulsa bu ko'rsatkich 2015-yilga kelib 42630 boshni tashkil qilgan. 2013-yilga nisbatan 2015-yilda quy va echkilar yetishtirish 8,2 foizga ko'paygan. Tumanda parrandachilikka ham katta e'tibor berilmoqda buning natijasida 2013 yilda 290,3 boshni tashkil qilgan bulsa 2015-yilga kelib 452.4 boshni tashkil qildi. bu ko'rsatkich 2013-yilga nisbatan 2015-yilda 5,8 foizga ko'paygan. Tumanda g'sht (tirik vaznda) yetishtirish 2013-yilda 12994 tonnani tashkil qilgan bulsa, 2015-yilga kelib 16793 tonnani tashkil qildi. bu ko'rsatkich 2013-yilga nisbatan 2015-yilda 29,2 foizga ko'paygan. Sut yetishtirish tumanda 2014-yil 63746 tonnani tashkil qilgan bulsa 2015-yilga kelib 38315 tonnaga yetgan. bu ko'rsatkich 2015-yilda 2013 yilga nisbatan 55,8 foizga kamaygan.


2.1.3.-jadval

Tayloq tumanida (2013-2015 y.y.) chorva bosh soni va chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish

Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	Chorva soni, yetishtirilgan mahsulot		
		2013 yil	2014 yil	2015 yil
Yirik shoxli mollar	<i>bosh</i>	90049	94547	95763
<i>shu jumladan: sigirlar</i>	<i>bosh</i>	42034	42316	42521
<i>fermer xo'jaliklarida yirik shoxli mollar</i>	<i>bosh</i>	3495	3563	3636
<i>shu jumladan: sigirlar</i>	<i>bosh</i>	813	790	995
Qo'y va echkilar	<i>bosh</i>	39388	41371	42630
<i>shundan fermer xo'jaliklarida</i>	<i>bosh</i>	700	561	561
Parranda	<i>bosh</i>	290,3	426,5	452.4
<i>shundan fermer xo'jaliklarida</i>	<i>bosh</i>	112,0	224,0	235
Otlar	<i>bosh</i>	611	614	277
<i>shundan fermer xo'jaliklarida</i>	<i>bosh</i>	22	13	79
Go'sht (tirik vaznda)	<i>tonna</i>	12994	15681	16793
<i>shundan fermer xo'jaliklarida</i>	<i>tonna</i>	405	2767	3531
Sut	<i>tonna</i>	59692	63746	38315
<i>shundan fermer xo'jaliklarida</i>	<i>tonna</i>	2480	2870	3324
Tuxum	<i>ming dona</i>	30525	32957	36836
<i>shundan fermer xo'jaliklarida</i>	<i>ming dona</i>	4670	2900	-

Mustaqillik yillarida qishloq xo'jaligini isloh qilish bo'yicha juda katta ishlar amalga oshirildi. Ishlab chiqarishga fan-texnika yutuqlarini, yangi texnika va ilg'or texnologiyalarni joriy etish ishlari yildan-yilga jadallashib bormoqda. Cheklangan yer va suv resurslaridan, kapitaldan va mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligi yuksalmoqda.

Respublikamiz agrar tarmog'ida amalga oshirilayotgan tub iqtisodiy islohotlar va tarkibiy o'zgarishlar natijasida qishloq xo'jaligining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari barqaror o'sib bormoqda.




2.2.1.-rasm. Samarqand viloyati va Tayloq tumanida eksport hajmi.

Manba: Samarqand viloyat Davlat statistika Bosh boshqarmasi ma'lumotlari.

2.2.1-rasm ma'lumotlariga ko'ra, Tayloq tumanida asosan eksportga yo'naltirilgan tovarlar oziq-ovqat mahsulotlaridan iborat bo'lib, bu ko'rsatkich 2016 yilda 3915,5 ming AQSH dollarini tashkil etgan.

Samarqand viloyatida oziq-ovqat xavfsizligining asosiy tayanchi bo'lgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini oshirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Xususan, ekin maydonlari tarkibini optimallashtirish, ishlab chiqarishga yangi va ilg'or texnologiyalarni joriy etish, ekin navlari va chorva mollari zotini, urug'chilik-seleksiya ishlarini tubdan yaxshilash borasida keng qamrovli, shu bilan birga, puxta o'ylangan ishlar amalga oshirildi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, mustaqillik yillarida qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmining oshishi faqat ekin maydonlarini kengaytirish evaziga emas, balki asosan intensiv rivojlanish, ya'ni ekinlar hosildorligi va chorva mollari mahsuldorligini oshirish hisobidan ta'minlanmoqda.



2.1.2.-rasm. Tayloq tumanida tovar aylanmasi hajmi.

Manba: Samarqand viloyat Davlat statistika Bosh boshqarmasi ma'lumotlari.

Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, tumanda tovar aylanmasi hajmi 2016 yilda 27657 ming AQSH dollarini tashkil etgan, 2017 yilda esa 41456,2 ming AQSH dollarini tashkil etilishi prognozlashtirilgan. Shuningdek, 2016 yilda eksport hajmi 12275,3 ming AQSH dollarini, import hajmi esa, 15381,7 ming AQSH dollarini tashkil etgan (2.3-rasm).

2.2. Aholini oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan iste'mol talablarining tahlili

O'zbekiston Prezidenti Islom Karimov dunyo hamjamiyati vakillari ishtirokida "O'zbekistonda Oziq-ovqat dasturini amalga oshirishning muhim zaxiralari" mavzusida bo'lib o'tgan xalqaro konferensiya ochilish marosimida so'zlagan nutqida "Mustaqil taraqqiyotimizning o'tgan qisqa davrida O'zbekistonda amalga oshirilgan ulkan islohotlar qishloq xo'jaligini tubdan diversifikatsiya qilish va aholimizni asosiy oziq-ovqat mahsulotlari bilan to'liq ta'minlash, ularni katta miqdorda eksport qilishni yo'lga qo'yish imkonini berdi" deb alohida ta'kidladi. Darhaqiqat, ushbu maqolada keltirilgan tahlillar mamlakatimizda aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlashning ulkan zaxiralari mavjud ekanligini isbotlaydi.

Raqobat muhiti keskinlashib borgan sari iste'mol bozorini o'rganishga bo'lgan ehtiyoj kuchayib boradi. Bu ehtiyoj esa bugungi kunda an'anaviy marketing tadqiqotlarini o'tkazish usullari bilan cheklanib qolmasdan, zamonaviy strategik qarorlarni qabul qilishda natijaviylikni ta'minlash usullarini ham qo'llashni taqozo etadi. Chunki bozorda savdo va aholining iste'mol madaniyati tez rivojlanib borayotgan bir sharoitda, faqat marketing tadqiqotlarini o'tkazib, aniqlik darajasi yuqori bo'lgan sifatli natijalarga erishib bo'lmaydi. Gap shundaki, iste'mol bozorining rivojlanib borishi talab va taklif muvozanatini ta'minlash va ayniqsa, talab darajasini aniq belgilagan holda, iste'mol tovarlari taklifini (ishlab chiqarishni) doimo muvofiqlashtirib borishni talab etadi.

Amalda aholi iste'mol talabini uning soni hamda daromadlarining o'sishi bilan bog'liq holda aniqlangan variantlarning mavjudligi, bozorda baho o'zgarishini, ishlab chiqarish uchun resurslar ajratishni (yer, mehnat va b.) tartibga solish imkoniyatini beradi. Shu nuqtai nazardan, hududlar aholisini iste'mol tovarlariga, birinchi navbatda, oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabini aniqlash amaliy jihatdan uy xo'jaliklari rivojlanishini, ayniqsa, ularni ishlab chiqarish resurslariga bo'lgan ehtiyojini bilish, daromad va harajatlari tarkibini prognozlashga asos bo'lib xizmat qiladi.

Shu nuqtai nazardan, uy xo'jaliklarining oziq-ovqat hamda nooziq-ovqat tovarlariga bo'lgan iste'mol talablarini aniqlash uchun amaliy jihatdan ham sodda, ham ilmiy asoslangan normativ usulidan foydalanish mumkin. Bunday yondashuv mamlakatimizda aholining eng kam (minimal) iste'mol byudjetini hisoblash uchun qator yillar davomida qo'llanilib kelinadi. Ushbu yondashuv asosini har bir mahsulot turi bo'yicha tabaqalashtirilgan me'yorlar tashkil etadi.

Me'yorlar O'zbekiston aholisi uchun belgilangan ratsional tibbiy me'yorlardan farq qilib, ular mamlakat aholisining to'lov qobiliyatini hamda iste'mol qilinadigan mahsulotning respublikada ishlab chiqarilishi yoki import qilinishini hisobga oladi va ular ma'lum ozuqa birligini (kilokaloriya) ta'minlaydi.

Shu bilan bir vaqtda, ta'kidlash joizki, aholi daromadining oshib borishi, oila turmush sifatining yuksalishi, iste'mol ratsionlarida muhim sifat o'zgarishlariga olib keladi va aholining asosiy qismi ratsional tibbiy me'yorlarda belgilangan hajmda ovqatlanishga bosqichma-bosqich o'tadi. Shuni inobatga olganda aholi iste'mol tovarlariga bo'lgan talabni aniqlashda tibbiy me'yorlarga asoslangan prognozlarni amalga oshirish lozim.

Ushbu qoidalardan kelib chiqib, uy xo'jaliklarining oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabi ikki xil me'yorlar, ya'ni minimal iste'mol byudjetini hisoblash me'yorlari hamda ratsional tibbiy me'yorlardan foydalangan holda hisoblandi (2.2.1-jadval).

2.2.1-jadval

O'zbekiston aholisining oziq-ovqat mahsulotlariga talabining prognoz variantlari (kg)

Mahsulotlar guruhi	Minimal iste'mol byudjeti me'yorlari bo'yicha		Ratsional tibbiy me'yorlar bo'yicha		Mahsulotlarning bozor bahosidagi qiymati, ming so'm	
	5 ²	7	5	7	5	7
Un va un mahsulotlari	607,5	850,5	807,5	991,2	1155,6	1620,7
Guruch	46	64,4	55	77	115,0	161,0
Kartoshka	317,5	444,5	319,5	447,5	270,0	377,8
Sabzavot	857,6	1200,5	566,5	793,1	1072,0	1500,6
Poliz ekinlari	87,5	122,5	493	690,2	74,4	104,1
Mevalar	338	473,2	438	613,2	1014,0	1420,5
Uzum-	77	107,8	127,5	178,5	192,5	269,5
Mol go'shti	74,8	130,9	137	164,4	1346,4	2356,2
Qo'y go'shti	53,2	93,1	182,5	255,5	1117,2	1955,1
Parranda go'shti	42,8	74,9	36,5	51,1	513,6	898,8
Baliq	52,8	92,4	55	77	316,8	554,4
Sut	596,2	935,1	1750	2450	894,3	1252,6
Tuxum (dona)	1028,5	1440	912,5	1277,5	360,0	504,0
Shakar	71,5	100	164,5	230,3	321,7	450,0
O'simlik yog'i	41,5	58,1	47,5	66,5	207,5	290,5

O'zbekistonda oilalarning minimal iste'mol byudjetini hisoblash uchun oziq-ovqatlarga talab 42 turdagi mahsulotlarni o'z ichiga oladi. Soni 5 va 7 kishidan iborat bo'lgan oila uchun bir yilga 607,5 kilogrammdan 850,5 kilogrammgacha un

va un mahsulotlari, shundan 55 foizi bug‘doy noni talab etiladi. Shuningdek, 5 kishidan iborat oila uchun yiliga 857 kg, 7 kishiga 1200 kg sabzavot; kartoshka esa mos ravishda 317,5 va 444,5 kg talab etiladi. Ushbu ko‘rsatkichlar oila a‘zolari soni oshib borishi bilan ko‘payib boradi.

Mahsulotlar guruhlarining bozor bahosidagi o‘rtacha qiymati 5 kishi uchun bir yilga 8,9 mln. so‘m, 7 kishi uchun 13,7 mln. so‘mga teng. Unda bitta oila a‘zosi uchun yiliga 5 kishidan iborat oilada o‘rtacha 1774,2 ming so‘m, 7 kishilik oilada 1959,4 ming so‘m to‘liq ratsion me‘yorlari bo‘yicha oziq-ovqat uchun daromaddan ajratma (harajat) talab etiladi. Uslubiy jihatdan oziq-ovqat mahsulotlariga talab etiladigan harajatlarni oilalar guruhi bo‘yicha, mahsulotlar harid qilish joylari (dehqon bozorlari, do‘konlar, supermarket va b.) hamda qishloq oilalarida shaxsiy tomorqada ishlab chiqarilgan mahsulotlar (bozor bahosiga tenglashtirib) baholaridan foydalanib tabaqalashgan holda hisoblashni amalga oshirish mumkin. Unda oziq-ovqatga sarflanadigan oila harajatlarining aniqlik darajasi yuqori bo‘ladi. Yil davomida mahsulotlar bahosining o‘zgarib turish hususiyati, bunday hisob-kitoblar uchun iste‘mol me‘yorlarini yil fasllariga qarab tabaqalashni talab etadi.

Respublika aholisining oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan me‘yoriy talablarini qondirish, qishloq xo‘jalik mahsulotlari ishlab chiqarish darajasiga bog‘liq hisoblanadi.

2.2.2.-jadval

O‘zbekistonda aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan asosiy turdagi oziq-ovqat mahsulotlarini iste‘mol qilish ko‘rsatkichlari

Oziq-ovqat mahsulotlarining turlari	Minimal iste‘mol me‘yori, kg/kishi	1990 yil	2000 yil	2010 yil	2015 yil	2015 yil	
						Me‘yorga nisb., %	1990 y. ga nisb., %
Go‘sh t va go‘sh t mahsulotlari	40,2	31	34	38	42,5	105,7	137,1
Sut mahsulotlari	136,7	183	162	239	266,4	194,9	145,6
Tuxum, (dona/kishi)	292	97	47	138	230,4	78,9	237,5
Sabzavot va poliz	128,8	107	128	238	285	221,3	266,3
Kartoshka	54,6	29	36	45	57	104,4	196,6
O‘simlik yog‘i va boshqa moylar	7,3	12	12	13	22	301,4	183,3
Shakar	19,4	12	16	17	28	144,3	233,3
Meva va uzum	90,6	23	42	83	145	160,0	6,3

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma‘lumotlari.

2.2.2.-jadvalda respublikamizda aholi jon boshiga asosiy turdagi oziq-ovqat mahsulotlarini iste‘mol qilish ko‘rsatkichlari keltirilgan. Tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki, 2015 yilda go‘sh t va go‘sh t mahsulotlari 1990 yilga nisbatan 137,1 %ga o‘sgan. Qolgan barcha oziq-ovqat mahsulotlari bo‘yicha ham muayyan normadan ortiq o‘shish tendensiyasi mavjud.

Uy xo‘jaliklari daromadining oshib borishi, oilalar turmush sifatining yuksalishi, ularning iste‘mol ratsionlarida muhim sifat o‘zgarishlariga olib keladi va aholining asosiy qismi ratsional tibbiy me‘yorlarda belgilangan hajmda ovqatlanishga bosqichma–bosqich o‘tadi. Shuni inobatga olganda aholi iste‘mol tovarlariga bo‘lgan talabni aniqlashda tibbiy va boshqa toifaga kiruvchi me‘yorlarga asoslangan prognozlarni amalga oshirish lozim.

III-Bob. Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash yo'llari

3.1. Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash istiqbollari

Insonlarning muhim ehtiyojlaridan biri oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojdir. Bu esa ushbu turdagi mahsulotlarni ko'paytirishni taqozo etadi. Oziq-ovqat mahsulotlarini yetishtirishda qishloq xo'jaligi muhim sohalardan biri hisoblanadi.

Sir emaski, dunyoda kuniga ming-minglab odamlar ochlik tufayli turli kasalliklarga chalinmoqda va hayotdan bevaqt ko'z yummoqda. Nufuzli xalqaro tashkilotlarning ma'lumotlar bo'yicha hozirgi paytda yer kurrasida qariyb 1 milliarddan ortiq odamlarning qorni nonga to'ymaydi.

Ma'lumotlarga ko'ra, so'nggi 35 yil ichida dunyo aholisining bug'doyga bo'lgan talabi ikki barobarga ortib, g'alla yetishtirish miqdori olti yuz million tonnaga yetdi. Hozirgi vaqtda barcha donli ekinlar maydoniga nisbatan bug'doy ekiladigan yer maydoni jahon bo'yicha 32 foizni tashkil etadi. Mutaxassislarning fikricha kelgusi 20-25 yil davomida bug'doyga bo'lgan talab 40 foizga oshadi. Demak, 2020 yilda jahon bo'yicha bug'doyga bo'lgan ehtiyoj 840 million tonnani tashkil etadi. Mazkur talabni qondirish uchun jahon bo'yicha bug'doy hosildorligini bugungi kundagidan qariyb yana bir barobarga oshirishni taqozo etadi. Bundan ko'rinadiki, kelajakda jahonda oziq-ovqat tanqisligi muammosini hal etish o'ta tig'iz masalalardan biri bo'lib hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti 2015 yil 15 mayda qabul qilingan "Xususiy mulk, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni ishonchli himoya qilishni ta'minlash, ularni jadal rivojlantirish yo'lidagi to'siqlarni bartaraf etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonida ham xususiy tadbirkorlikning iqtisodiyotdagi roli va o'rnini tubdan oshirish, tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish yo'lidagi mavjud to'siq va cheklovlarni tugatish, jumladan, qishloq xo'jaligi

mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarga yanada qulay iqtisodiy, huquqiy shart-sharoit va rag‘batlar yaratishga keng e‘tibor qaratilgan.¹¹

Mamlakatimiz mustaqilligining dastlabki kunlaridanoq, qishloq xo‘jaligi sohasida ham keng ko‘lamli islohotlar boshlab yuborildi va g‘alla mustaqilligi g‘oyasi olg‘a surdi. G‘allachilikning ilg‘or usullari, zamonaviy va intensiv agrotexnologiyalari amaliyotga dadil tatbiq etildi va chet ellardan hosilni tez nest-nobud qilmay o‘rib-yig‘ib oladigan kombaynlar sotib olindi. Shuningdek, dehqonlar moddiy manfaatdorligini oshirishga alohida e‘tibor berildi. Natijada O‘zbekiston g‘alla mustaqilligiga uzil-kesil erishdi.

Respublikamiz birinchi prezidenti I.A.Karimov mamlakatimizni 2015 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2016 yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma‘ruzasida ta‘kidlaganidek: “Mamlakatimiz qishloq xo‘jaligida ham chuqur tarkibiy o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda. Murakkab ob-havo sharoitlariga qaramasdan fermer va dehqonlarimizning fidokorona mehnati va omilkorligi tufayli o‘tgan yili mo‘l hosil yetishtirildi – 7 million 500 ming tonnadan ortiq g‘alla, 3 million 350 ming tonnadan ziyod paxta xirmoni barpo etildi.

Ta‘kidlash kerakki, bunday mo‘l hosil asosan qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarishni jadallashtirish, seleksiya ishlarini yaxshilash, g‘o‘za va boshqoli don ekinlarining rayonlashtirilgan navlarini joriy qilish, zamonaviy agrotexnologiyalarni o‘zlashtirish evaziga ta‘minlandi.

Mamlakatimizda bug‘doydan gektaridan o‘rtacha 55 sentner hosil olingani, ayrim tumanlarda bu ko‘rsatkich 60-77 sentnerni tashkil etgani, hech shubhasiz, fermerlarimizning ulkan yutug‘idir¹². Bu esa, o‘z navbatida, qayta ishlash

¹¹ O‘zbekiston Respublikasi 1-prezidentining “Xususiy mulk, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni ishonchli himoya qilishni ta‘minlash, ularni jadal rivojlantirish yo‘lidagi to‘siqlarni bartaraf etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni. – Toshkent.; “Xalq so‘zi” gazetasi, 2015 yil 16 may, 98 (6281)-son

¹² I.A.Karimov. “Bosh maqsadimiz – mavjud qiyinchiliklarga qaramasdan, olib borayotgan islohotlarni, iqtisodiyotimizda tarkibiy o‘zgarishlarni izchil davom ettirish, xususiy mulkchilik, kichik biznes va tadbirkorlikka yanada keng yo‘l ochib berish hisobidan olg‘a yurishdir”. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015 yilda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2016 yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan majlisidagi ma‘ruzasi. Toshkent. “Xalq so‘zi” gazetasi, 2016 yil 16 yanvar, 11 (6446) – son

korxonalarini xom ashyo, aholini esa oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash, shuningdek, qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksport salohiyatini oshirishga asos yaratdi. Eng asosiysi, qisqa muddatda mamlakatimizning oziq-ovqat xavfsizligi ta'minlandi.

Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash deganda, mintaqada mavjud resurslardan unumli va oqilona foydalanish orqali fan-texnika yutuqlariga asoslangan holda, aholini oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish demakdir. Shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlarining sanitariya, veterinariya, fitosanitariya normalari va qoidalariga mosligi tushuniladi.

Mamlakatimiz aholisini yuqori sifatli, xavfsiz, vitaminlar va mineral moddalarga boy oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash ustuvor vazifalardan biri qilib belgilangan. Chunki, oziq-ovqat mahsulotlari tarkibida vitaminlar va mineral moddalar yetishmasligi onalar va bolalar o'rtasida kasallik va o'lim darajasining oshishiga, bolalar va o'smirlarning intellektual-jismoniy rivojlanishining pasayishiga, katta yoshdagi insonlarning esa ish qobiliyatlarini susayishiga olib keladi. Bu salbiy oqibatlarini oldini olishning birdan-bir xavfsiz va tejamli usuli oziq-ovqat mahsulotlari tarkibini boyitishdir.

Davlatimiz siyosati, avvalo, aholini boyitilgan oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlashga qaratilgan ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy, tashkiliy chora-tadbirlarni amalga oshirish va oziq-ovqat mahsulotlarini boyitish uchun vitamin-mineral aralashmalarning sifati hamda xavfsizligi ustidan davlat nazoratini ta'minlash muhim vazifa hisoblanadi.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash, aynan qishloq xo'jaligi tarmog'i zimmasida ekanligi bizga ma'lum. Bu sohaning respublikamiz ijtimoiy-iqtisodiy hayotida muhim o'rin tutganligi uchun yurtboshimiz rahnamoligida istiqloqlning dastlabki yillaridanoq qishloq xo'jaligida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirildi. Xususan, xo'jalik yuritishning eng samarali, taraqqiy etgan davlatlar tajribasida o'zini har tomonlama oqlagan fermerlik harakatiga o'tilishi ushbu soha rivojida yangi davrni boshlab berdi.

Amalga oshirilgan chora-tadbirlar tufayli mamlakatimiz 1-prezidenti Islom Karimov ta'kidlaganidek, istiqlol yillarida qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish 2 barobarga ko'paydi. Bu mamlakatimiz aholisining qariyb 10 million kishiga yoki 30 foizdan ko'proqqa oshganiga qaramay, jon boshiga to'g'ri keladigan go'sht iste'molini 1,3 barobar, sut va sut mahsulotlarini 1,7 barobar, sabzavotlarni 2 marta, mevalarni qariyb 4 barobar oshirishga erishildi.

Agrar sohadagi tarkibiy o'zgarishlar tufayli meva-sabzavotchilik, bog'dorchilik, uzumchilik va chorvachilik kabi tarmoqlar ham tobora rivojlanib bormoqda. Natijada 2015 yili 12 million 592 ming tonna sabzavot va kartoshka, 1 million 850 ming tonna poliz mahsulotlari, 1 million 556 ming tonna uzum, 2 million 731 ming tonna meva yetishtirildi. Bu aholi jon boshiga qariyb 300 kilogramm sabzavot, 75 kilogramm kartoshka va 44 kilogramm uzum to'g'ri kelmoqda. Bu optimal, ya'ni maqbul deb hisoblanadigan iste'mol me'yoridan uch barobar ko'p demakdir ¹³.

Bundan ko'rinadiki, O'zbekiston nafaqat ichki oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlamoqda, balki xorij mamlakatlari oziq-ovqat mahsulotlari bozoriga ham munosib hissa qo'shib kelmoqda.

2015 yilda mamlakatimiz Birlashgan Millatlar Tashkilotining Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO)ga a'zo bo'lgan davlatlarning oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash sohasida Mingyillik rivojlanish maqsadlariga erishgani uchun beriladigan mukofotga sazovor bo'lgan 14 ta davlatdan biri sifatida e'tirof etildi.

Bugungi kunda umumiy qiymati qariyb 5 milliard dollarga teng bo'lgan oziq-ovqat, eng avvalo birinchi navbatda, meva-sabzavot mahsulotlarini eksport qilinmoqda. Keyingi uch yilda eksport qilinayotgan qishloq xo'jalik mahsulotlari miqdori 3 barobardan ko'proqqa oshdi. Natijada, dunyoni 80 dan ortiq davlatiga

¹³ I.A.Karimov. "Bosh maqsadimiz – mavjud qiyinchiliklarga qaramasdan, olib borayotgan islohotlarni, iqtisodiyotimizda tarkibiy o'zgarishlarni izchil davom ettirish, xususiy mulkchilik, kichik biznes va tadbirkorlikka yanada keng yo'l ochib berish hisobidan olg'a yurishdir". O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015 yilda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2016 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan majlisidagi ma'ruzasi. Toshkent. "Xalq so'zi" gazetasi, 2016 yil 16 yanvar, 11 (6446) – son

180 turdagi sifatli meva-sabzavot va ularni qayta ishlash asosida tayyorlangan mahsulotlarni eksport qilinmoqda. Mamlakatimiz o‘rik, yong‘oq, olxo‘ri, uzum, karam va boshqa ko‘plab meva va sabzavot mahsulotlarini eksporti bo‘yicha yetakchi davlatlar qatorida turadi.

Mustaqillik yillarida oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishning o‘shirish sur‘atlari har yili 8-10 foizga oshirilganligi natijasida ichki bozor ehtiyojlari, asosan, o‘zimizda tayyorlangan mahsulotlar hisobiga qondirilmoqda. Oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash va aholini iste‘moli uchun uzluksiz hamda yetarli miqdorda oziq-ovqat mahsulotlarini yetkazib berish maqsadida 2012-2015 yillarda jami 312 ta meva-sabzavot, go‘sht va sut mahsulotlarini qayta ishlash korxonalari tashkil etish belgilandi. Shu jumladan, 169 ta yangi korxonalar qurish va 143 ta mavjud korxonalarni rekonstruksiya va modernizatsiya qilish rejalashtirildi. Ularning ijrosini ta‘minlanishi natijasida mamlakatimizda 63,1 ming tonna meva-sabzavot, 16,5 ming tonna go‘sht, 45,7 ming tonna sut mahsulotlarini qayta ishlash quvvatlari tashkil qilindi.

Qishloq xo‘jaligi sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar va tarkibiy o‘zgarishlarni yanada chuqurlashtirish, yer va suv resurslaridan samarali foydalanish 2016 yil va yaqin istiqbolga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturlarni muhim yo‘nalishidir.

Mazkur dastur asosida qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirishni tarkibini o‘zgartirish belgilangan bo‘lib, bunga ko‘ra 2020 yilgacha paxta xom ashyosi yetishtirishni 350 ming tonnaga bosqichma-bosqich kamaytirish belgilab qo‘yilgan. Buni evaziga 170 ming 500 gektar sug‘oriladigan yer paxtadan bo‘shatiladi. Bu ekin maydonlarida sabzavot va kartoshka, ozuqa ekinlari, yog‘-moy olinadigan va boshqa ekinlar ekiladi. Shuningdek, bog‘ va uzumzorlar tashkil etiladi.

Ekin maydonlarini optimallashtirish va zamonaviy agrotexnologiyalarning joriy etilishi natijasida 2020 yilda boshoqli don yetishtirish 16,4 foizga oshirilib, uning hajmini 8 million 500 ming tonnaga yetkazish, kartoshka yetishtirishni 35 foizga, sabzavotni 30 foizga, meva va uzumni 21,5 foizga, go‘sht yetishtirishni

26,2 foizga, sutni 47,3 foiz, tuxumni 74,5 foizga ko'paytirish, baliq yetishtirishni 2,5 marta ko'paytirish va shu turdagi oziq-ovqat mahsulotlarini eksport qilish hajmini ham ma'lum miqdorda oshirish e'tiborga olingan.

Shuningdek, jami 190 ming tonnadan ziyod meva va sabzavotlar saqlanadigan 274 ta zamonaviy sovutgichli kamera va omborlarni qurish va to'liq rekonstruksiya qilish ishlari bajariladi.

Respublikamiz hukumati tomonidan oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga munosib hissa qo'shib kelayotgan barcha sub'ektlarning ishlab chiqarish faoliyatlarini yanada rivojlantirish maqsadida, tashkiliy, iqtisodiy va moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlab kelinmoqda. Bu quyidagi yo'nalishlarda amalga oshiriladi.

1. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarning huquq va manfaatlarini himoyalashga amaliy yordam berish.

2. Oziq-ovqat mahsulotlarini ko'paytirish maqsadida ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklarini tashkil etish va rivojlantirish yuzasidan sabzavotchilik, intensiv bog'dorchilik, uzumchilik, chorvachilik, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash, issiqxonalar tashkil etishga doir loyihalarni amalga oshirish bo'yicha maxsus dasturlar qabul qilish va ularni bajarish doirasida xo'jalik sub'ektlariga banklar tomonidan imtiyozli kreditlar ajratish.

3. Oziq-ovqat, xususan, qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksportini ko'paytirish va faoliyatni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash va hokazolar.

Mamlakatimizning barcha hududlarida bo'lganidek, Namangan viloyatida ham ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklari qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish bilan birga, ularni chuqur qayta ishlash, qurilish ishlarini amalga oshirish va qishloq aholisiga turli xizmatlar ko'rsatish kabi yo'nalishlarda samarali faoliyat ko'rsatmoqda. Bu esa o'z istiqbolini topmoqda.

Bugungi kunda viloyatda bunday fermer xo'jaliklarining soni tobora ko'payib bormoqda. Jumladan, Kosonsoy tumanidagi "Chashmai safed" fermer xo'jaligi ham Davlatimiz rahbari va hukumatomiz tomonidan amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar natijasida barqaror yutuqlarga erishib, rivojlanib

borayotgan ko'p tarmoqli xo'jaliklardan biri hisoblanadi. Bu xo'jalik faoliyati chorvachilik va dehqonchilik mahsulotlari yetishtirish, sut va go'sht mahsulotlarini qayta ishlash kabi turli tarmoqlarni qamrab oladi. Bizga ma'lumki, foyda olishdagi asosiy samara o'zi yetishtirgan mahsulotlarni qayta ishlab, so'ngra sotishdan olinadi. "Chashmai safed" fermer xo'jaligida ham bunga katta e'tibor qaratilgan bo'lib, xo'jalikda yetishtirilgan sutni qayta ishlash orqali pishloq, qatiq, qaymoq, sariyog', smetana kabi 12 turdagi sut mahsulotlarini ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgan. Shu bilan birga, bu yerda ishlab chiqarilayotgan "Kosonsoy pishloqlari" brendidagi mahsulotlar yurtimizning deyarli barcha bozorlarida doimiy o'z haridorlariga ega. Tumandagi "Ahmadxon hoji Kosoniy" fermer xo'jaligida ishlab chiqarilayotgan non mahsulotlari, shuningdek, boshqa xo'jaliklardagi istiqbolli amaliyotlarni butun respublika miqyosida ommalashtirishga namuna bo'la oladi.

Bu kabi ko'plab fermer xo'jaliklari tuman iqtisodiyotida salmoqli o'rin egallaydi. Bularning natijasi o'laroq, o'tgan yilda Kosonsoy tumanida yalpi qishloq xo'jaligi mahsulotlarini o'sish sur'ati 108 foizga ta'minlandi.

O'tgan yilda chorvachilik, parrandachilik va asalarichilikni rivojlantirish bo'yicha 71 ta loyiha amalga oshirilib, bunga 200 million so'mdan ortiq mablag' sarflandi, natijada 100 ta yangi ish o'rni yaratildi. Shu bilan birga, qishloq xo'jaligida qoramollar bosh sonlari 40,0 mingni, shu jumladan, sigirlar 13,6 ming boshni, qo'y-echkilar 45,6 ming boshni, parrandalar 458,9 ming boshni, otlar 285 ming boshni va asalari oilalari 1808 tani tashkil etdi.

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishni kengaytirish va ichki bozorni to'ldirish dasturiga ko'ra, tuman aholisini arzon va sifatli mahsulotlar bilan ta'minlashni yanada yaxshilash maqsadida, dehqonchilik mahsulotlaridan 42 ming tonna don, 27,5 ming tonna sabzavot, 6,5 ming tonna kartoshka, 4 ming tonna uzum, 9,2 ming tonna meva yetishtirildi.

Shuningdek, viloyatning boshqa tumanlari ham oziq-ovqat mahsulotlarini yetishtirishga o'z hissalarini qo'shmoqda. Jumladan, Uychi tumanidagi "Ko'rkam nur sahovat" fermer xo'jaligi tomonidan yillik quvvati 15 tonna bo'lgan go'shtni

qayta ishlash sexi faoliyati yo‘lga qo‘yilgan. Norin tumanida esa “Dildora” fermer xo‘jaligi tomonidan xom sutni qabul qilish servis punktlari ishga tushirildi.

O‘tgan yillar tajribasidan kelib chiqib, Norin tumanida 2015 yilda oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash uchun 34 ta loyiha ishlab chiqildi. Uning ijrosiga 4 milliard 580 million so‘m mablag‘ yo‘naltiriladi va shu yo‘l bilan 145 ta yangi ish o‘rni yaratiladi. Chorvachilik, baliqchilik, asalarichilik, parrandachilikni rivojlantirish, mevali bog‘lar, tokzorlar barpo etish, yangi sovutgichli omborxonalarni tashkil etish, go‘sht mahsulotlarini qayta ishlash sexlarini ishga tushirish ishlari rejalashtirilgan. Bunday ijobiy ishlar viloyatning boshqa tumanlarida ham amalga oshirilmoqda.

Xulosa qilib aytish mumkinki, butun dunyoda oziq-ovqat xavfsizligi tobora muhim ahamiyat kasb etayotgan bugungi kunda mamlakatimiz aholisining oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash uchun zarur shart-sharoitlar yaratilib, aniq maqsadli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bulardan ko‘zlangan maqsad mamlakat iqtisodiyotining yetakchi tarmoqlaridan biri bo‘lgan qishloq xo‘jaligini barqaror rivojlantirish, eksport salohiyatini oshirish va O‘zbekistonning rivojlangan davlatlar qatoridan mustahkam o‘rin egallashini ta‘minlashga qaratilgan.

3.2. O‘zbekiston oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlashning asosiy yo‘nalishlari va mexanizmlari

Mamlakat oziq-ovqat xavfsizligi ta‘minlanishini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash va tartibga solish mexanizmi ishlab chiqilgan, mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlashning istiqbollari eksportga yo‘naltirilgan va import o‘rnini bosuvchi strategiya ssenariylari asosida tahlil qilingan. Shu bilan bir qatorda, mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlashning huquqiy, iqtisodiy va tashkiliy mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha takliflar berilgan.

Mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlashda davlatning roli muhim ahamiyatga ega bo‘lib, u, birinchi navbatda, makroiqtisodiy barqarorlikni ta‘minlash, monopoliyaga qarshi siyosatni amalga oshirish, oziq-ovqat xavfsizligiga salbiy ta‘sir etuvchi tashqi va ichki omillarni bartaraf etish, ijtimoiy

infratuzilmani takomillashtirish, eksportni rag'batlantirish, importni maqbullashtirish, soliqqa tortishda imtiyozlar berish, moliya-kredit mexanizmlarini rivojlantirish kabi masalalardan iboratdir.

Yuqorida ta'kidlanganlardan kelib chiqqan holda, bizning fikrimizcha, mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda davlatning roli quyidagi yo'nalishlarda o'z aksini topishi maqsadga muvofiq. Jumladan: oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabni tartibga solish; oziq-ovqat mahsulotlari bo'yicha taklifni tartibga solish; tashkiliy infratuzilma va axborot ta'minotini takomillashtirish; tashqi iqtisodiy aloqalarni tartibga solish. Shuningdek, uning rolini oziq-ovqat mahsulotlari bozorini tartibga solish va agrosanoat ishlab chiqarishi sohasini rivojlantirish jarayonlarini boshqarishning ajralmas tarkibiy qismi sifatida qarash maqsadga muvofiq.

Milliy oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda asosan eksport salohiyatidan foydalanish o'zining ijobiy natijasini beradi, biroq bu jarayon iqtisodiy samaradorlik jihatidan tahlil qilinganda uzoq muddatli yuqori ko'rsatkichlarga olib kelmaydi. Chunonchi, mamlakatda eksportga yo'naltirilgan strategiyadan yuqori daromad olish maqsadida mavjud tabiiy va mehnat resurslaridan uzluksiz foydalanish kutilgan natija bermaydi.

Ilmiy ishda taklif etilayotgan eksportga yo'naltirilgan va import o'rnini bosish strategiyasi ssenariylari asosida mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning 2015 yilgacha bo'lgan prognozi taklif etilgan. Prognoz ko'rsatkichlari shuni ko'rsatmoqdaki, ushbu ikki strategiyalar ssenariysi nuqtai nazaridan istiqbolda mamlakat aholisining tibbiy me'yorlarda oziq-ovqat mahsulotlarga bo'lgan talabini qondirish bilan bir qatorda ayrim oziq-ovqat mahsulotlarni eksport qilish hajmlari ortadi. Biroq shakar, tuxum, kartoshka va mevalar bo'yicha aholini tibbiy me'yorlarda ta'minlash imkoni pastligini inobatga olgan holda, ushbu mahsulot turlari importining oshishi kutiladi.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayonidagi O'zbekiston Respublikasi uchun oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda eksportga yo'naltirilgan va import o'rnini

bosish strategiyalari bir-biri bilan uyg'unlashtirilgan holda olib borilishi maqsadga muvofiq. Bu ikki yo'nalishning muvozanatlashtirilgan varianti mamlakat aholisi iste'mol darajasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi va natijada oziq-ovqat xavfsizligini uzluksiz ta'minlaydi.

Yuqoridagilarga asoslangan holda istiqbolda mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash uchun quyidagi huquqiy, iqtisodiy va tashkiliy mexanizmlarni amalga oshirilishi lozim:

Huquqiy mexanizm - yer qonunchiligini bozor munosabatlariga asoslangan holda yanada takomillashtirish; qishloq xo'jaligida ipoteka kreditlarini ajratish bo'yicha huquqiy asoslarni shakllantirish; mahsulot sifatini boshqarish va xavfsizligini nazorat qilishning huquqiy-me'yoriy mexanizmlarini takomillashtirish; mahalliy eksport qiluvchilar huquqini xorijiy davlatlarda himoya qilish; zamonaviy bozor institutlari va infratuzilmalarini shakllantirish uchun huquqiy bazani yanada takomillashtirish; agrar tarmoqda integrasiyani rivojlantirishning huquqiy-me'yoriy asoslarini takomillashtirish; JST talablaridan kelib chiqqan holda tarmoqni isloh qilishning huquqiy asoslarini shakllantirish; mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash Dasturini ishlab chiqish; «Iste'mol savati to'g'risida»gi qonunni qabul qilish.


Iqtisodiy mexanizm - qishloq xo'jaligida ipoteka kreditlari ajratishning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish; agrar tarmoqqa investisiya jalb qilishni oshirish; narx va kredit siyosatini mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash nuqtai nazaridan takomillashtirish; byudjetdan ajratilgan mablag'lardan oqilona foydalanish va uni qat'iy nazorat qilish; qishloq xo'jaligini moliyaviy sog'lomlashtirish tizimi va ishlab chiqaruvchilar bankrotligi mexanizmini ishlab chiqish; yagona yer solig'ini yanada takomillashtirish; tez buzuluvchi mahsulotlarni eksport qiluvchilar uchun transport tariflarini optimallashtirish; yer unumdorligini oshirgan xo'jalik subyektlariga iqtisodiy imtiyozlar berish; qishloq joylarida muhandislik va ijtimoiy infratuzilmalarni moliyalashtirishning samarali mexanizmini ishlab chiqish; ijtimoiy infratuzilma obyektlarini qishloq xo'jaligi balansiga o'tkazish; agrar tarmoqda integrasiyani rivojlantirishning iqtisodiy

mexanizmini ishlab chiqish; agrosanoat majmui tashqi iqtisodiy faoliyatini yanada erkinlashtirish.

Tashkiliy mexanizmlar - favqulodda vaziyatlarda aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan barqaror ta'minlash mexanizmini ishlab chiqish; agrar sohada ilg'or axborot tizimini shakllantirish; oziq-ovqat mahsulotlari savdosida ma'muriy va texnik to'siqlarni yo'qotish; milliy sertifikatsiyalash tashkilotlarini xorijiy davlatlarda akkreditatsiyadan o'tkazish; aerofotomonitoring tizimini ishlab chiqish.

Jahon miqyosida oziq-ovqat mahsulotlari tanqisligi kuchayib borayotgan sharoitda mamlakat oziq-ovqat mahsulotlari balansini quyidagi yo'nalishlar bo'yicha ishlab chiqish maqsadga muvofiq (3.2.1.-rasm).

Mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning asosiy mexanizmlari




Shu bilan bir qatorda, amaldagi qisqa, uzoq muddatli maqsadli dasturlar va chora-tadbirlarni aholini asosiy turdagi oziq-ovqat mahsulotlari bilan barqaror ta'minlash, kam ta'minlangan aholi qatlami holatidan kelib chiqqan holda takomillashtirish lozim. Bunda, asosan, chorvachilikni rivojlantirish dasturi, meva-

sabzavotchilikni rivojlantirish dasturi, un va o'simlik yog'ini sotishni tartibga solish tartibi, kuz va qish oylari uchun asosiy turdagi oziq-ovqat mahsulotlarini zaxiraga qo'yish tartibiga alohida e'tibor qaratish kerak.

Ma'lumki, bozor iqtisodiyotiga o'tish davridagi mamlakat aholisining daromad hajmlari bo'yicha turli qatlamlarga bo'linishi jadal ro'y beradi. Bunday vaziyatda, xususan O'zbekistonda kam ta'minlangan aholi qatlamlarini davlat tomonidan ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, birinchi navbatda, ularni oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlashning samarali mexanizmini ishlab chiqish dolzarb bo'lib qolmoqda. Shu nuqtai nazardan, tadqiqot ishida kam ta'minlangan va past daromadli aholi qatlamlarini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlashning quyidagi mexanizmlari taklif etilgan(3.2.2.-rasm).

3.2.2-rasm.

Kam ta'minlangan va past daromadli aholi qatlamlarini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash mexanizmlari¹⁴



¹⁴ Manba: Fazilov Faxmiddin Miradilovich. JAHON IQTISODIYOTINING GLOBALASHUVI SHAROITIDA O'ZBEKISTON OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH. Iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya AVTOREFERATI

Yuqorida qayd etilgan mexanizmlarni joriy qilish kelajakda, asosan, mahalliy ishlab chiqarish hisobiga oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabni qondirish, iste'mol sifatini oshirish va mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash imkonini beradi.

Ushbu rasmda O'zbekiston Respublikasida qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining o'sish sur'atlari, foizda aks ettirilgan. Doimiy o'sish mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishidan, bozorlarimizni to'lishidan, va nihoyat mamlakat aholisining oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlanishini kafolatlab beradi. Shuni sedan chiqarmasligimiz kerakki, jahon ho'jaligida globallashuv jarayoni shiddat bilan o'sib borishini inobatga olgan holda, nafaqat milliy oziq-ovqat xavfsizligini, balki MDH va Xorijiy davlatlarni oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash maqsadga muvofiqdir.

3.2 oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda mexnat va yong'in xavfsizligi

Mamlakatimizda olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohatlarning bosh maqsadi inson manfaatlariga qaratilgan. Shunga ko'ra, korxonalarda ham faoliyat ko'rsatayotgan xodimlar salomatligini, ular hayoti xavfsizligini ta'minlash korxonalar rahbariyatining diqqat markazida bo'lishi lozim.

O'zbekiston Respublikasida mehnatni muhofazasi «Mehnatni muhofaza qilish» qonuniga binoan (5-modda) mehnat muhofazasi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan nazorat qilinadi.

Davlat strukturasiidagi barcha bo'limlar bu bilan shug'ullanib, boshqarib borishadi.

Korxonalarda mehnat qonunlarining buzilmasligining tarmoq nazoratini vazir va birlashmalar bo'ysunish tartibi bilan amalga oshiradi.

Hayot faoliyati xavfsizligining barcha sohalari bo'yicha bajariladigan tadbirlar davlat byudjeti, korxonalar, tashkilot, homiylar va boshqalar tomonidan moliyaviy ta'minlanadi.

Mehnatni muhofaza qilish vositalarini yaratish majburiyigi ham qonunda batafsil ko'rsatib o'tilgan. Unga ko'ra korxonalar xodimlarning texnika xavfsizligini ta'minlashlari, shu maqsadda tegishli adabiyotlar, plakatlar bilan ta'minlashlari, xodimlar o'rtasida instruktajlar o'tkazib turishlari, shuningdek, zaruriy hollarda xodimlarni sut, davolash-profilaktika oziq-ovqati, gazli sho'r suv, shaxsiy himoya va gigiyena vositalari bilan ta'minlashi lozimligi keltirilgan.

Korxonadagi har bir ish joyidagi mehnat sharoiti mehnatini muhofaza qilish standartlari, qoida va me'yorlari talabalariga muvofiq bo'lishi lozim.

Korxonada mehnatning sog'lom va xavfsiz sharoitlarini ta'minlash, ishlab chiqarishning xavfli va zararli omillari ustidan nazorat o'rnatilishini tashkil etish va nazoratning natijalari to'g'risida mehnat jamoalarini o'z vaqtida xabardor qilish ma'muriyat zimmasiga yuklanadi.

Mehnat sharoiti zararli va xavfli ishlab chiqarishlarda, shuningdek, o'ta noxush haroratli yoki ifloslanishlar bilan bog'liq sharoitlarda bajariladigan ishlarda mehnat qiluvchilarga davlat boshqaruvi idoralari belgilagan me'yorlarda maxsus kiyim, poyabzal va boshqa maxsus himoya vositalari, yuvish va dizenfeksiyalash vositalari, sut yoki unga tenglashadigan boshqa oziq-ovqat mahsulotlari, parhez ovqat bepul beriladi.

Korxonada mehnatning sog'lom va xavfsiz sharoitlarini ta'minlash yuzasidan ma'muriyat bilan xodimlarning o'zaro majburiyatlari jamoa shartnomasi yoki bitimida ko'zda tutiladi.

Korxonada ma'muriyati tomonidan mehnat konunchiligiga rioya kilinishi yukori idora organlari, maxsus davlat inspeksiyasi (Gos energonadzor), prokratura shuningdek kasaba soyuz organlari va ularning raxbarligidagi jamoatchilik nazorat kiladi.

Kasaba soyuzlarning ishlab chikarishdagi kumitalari xuzuridagi mehnat muxofazasi bo'yicha komissiya tashkil qilinadi. Komissiya mehnat konunchiligiga, xavfsizlik texnikasiga va ishlab chikarish sanitariyasiga doir koida va normallarga rioya qilishni tekshiradi va mehnat muxofazasiga oid bo'lgan kuriklarda ishtirok etadi.

Bu komissiya ishchilarga instruktaj berish va xavfsiz ishlash usullarini o'rgatish sifatini, xatolar va asboblarning tuzukligini, mexnat muxofazasiga ajratilgan mablag'larni sarflanishini, baxtsiz hodisalarni to'g'ri hisobga orlinishini nazorat kiladi, ishlab chikarish travmatizli va kasbiy kasalliklar sabablarini urganadi va ma'muriyatga takliflar kiritadi, ishchilarning maxsus korjoma, maxsus oyok kiyimi individual ximoya vositalari sut, sovun, sifatli ichimlik suv bilan vaktida ta'minlanishini nazorat kiladi. Komissiya istagan vaktida ish urinlarini tekshirishi mumkin.

Mexnat muxofazasi bo'yicha jamoat inspektor xujalikning har kaysi bulinmasida bir yil muddatga saylanadi. U mexnat konunchiligiga rioya kilinishini, instruktajning uz vaktida utkazilishini nazorat kiladi, stanoklar asbob-uskunalar, ximoyalovchi kurilmalar buzukligini aniqlash, chikindilarni uz vaktida yigishtirib olinishi, utish joylari va ish urinlarida tartibga rioya kilinishini nazorat kilib turishi zarur, shuningdek ishchilar maxsus korjoma, ximoyalovchi vositalar, sovun bilan ta'minlanishini tekshirib turishi zarur.

Korxonalarda kasaba soyuz qoshida mexnat texnikaviy inspektori tayinlanadi. U mexnat qonunchiligi bo'yicha ishlarni kasaba soyuziga qarashli korxonaldarda nazorat kiladi. Bundan tashqari qurilgan korxonalar va xonalar uning ijozatisiz foydalanishga topshiriladi. Hamda davlat nazorati inspeksiyalari bilan aloqada bo'ladi. "Yo'l harakati qoidalari" ga rioya qilishni Davlat avtoinspeksiyasi nazorat qiladi.

Elektr qurilmalar, elektr tarmoqlar, bug' qozonlari, elektr stansiyalari, qishlok xo'jaligi korxonalaridagi ko'tarish-tushirish texnikalari ishlashi va ularga xavfsiz xizmat ko'rsatish qoidalari rioya qilishni Davlat energiya nazorati inspeksiyasi nazorat qiladi.

Davlat sanitariya nazorati Respublika sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan amalga oshiriladi.

Insoniyatning hayoti va ish jarayonida sodir bo'lish ehtimoli ko'p bo'lgan va katta talofat keltiradigan baxtsiz hodisalardan biri yong'in hisoblanadi. Shuning uchun korxonalarda yong'in xavfsizligi choralarni ko'rish, yong'in sodir etgan

hollarda uni o‘chirishga moslashgan asboblarga ega bo‘lish muhim ahamiyatga ega.

Korxonalarda, tashkilotlarda xavfsizlikni ta‘minlash va ish sharoitini yaxshilash ma‘muriyatning asosiy vazifasi sifatida mehnat qonunlari va kodeksida yozib qo‘yilgan.

Har qanday korxonada ishlab chiqarish texnologiyasi, ishlatiladigan xom ashyosi, chiqaradigan mahsuloti va joylashgan binosining konstruksiyasi hisobga olingan holda yong‘in chiqishga, portlashga va yong‘in chiqqan taqdirda uning tarqalishiga, shuningdek yong‘inning asoratiga asoslangan holda yong‘inga va portlashga xavflilik darajasi belgilanadi.

Albatta, har bir korxonada yong‘in xavfi birinchi navbatda, u yerda ishlatilayotgan xom ashyoning va chiqarilayotgan mahsulotning yong‘inga xavflilik darajasi bilan o‘lchanadi. Shuning uchun ham korxonalarni kategoriyalarga ajratganda ishlatilayotgan moddalarning fizik-kimyoviy xususiyatlari hisobga olinadi.

Korxonalarda yong‘inga qarshi kurash ishlarini shu korxonalarining yong‘inga xavflilik darajasiga qarab, korxonada ma‘muriyati belgilaydi. Agar korxonada yong‘in xavfli bo‘lsa, unda yong‘inga qarshi kurash bo‘limi tashkil qilinadi. Bunday bo‘lim o‘zining maxsus yong‘inga qarshi kurash komandalarini tashkil qiladi.

Hozirgi vaqtda davlat yong‘inga qarshi kurash nazoratini Ichki ishlar vazirligining yong‘indan muhofaza qilish bosh boshqarmasi amalga oshiradi. Uning asosiy vazifasi korxonalarda yong‘in va portlashga olib keladigan sabablarni yo‘qotishga qaratilgan tashkiliy va texnik chora-tadbirlarni ishlab chiqish va ularni amalga oshirishdan iboratdir.

Qabul qilingan texnologik loyihalashning amaldagi me‘yorlariga binoan barcha ishlab chiqarish korxonalari texnologik jarayonlarning portlash va yong‘in xavfi bo‘yicha besh toifaga bo‘linadi (A, B, V, G va D).

«A» hamda «B» toifalar portlash va yong‘in xavfi mavjud korxonalaridir.

«V» toifasiga faqat yong'in xavfi mavjud korxonalar kiradi. Ular «A» va «B» toifalarida uchramaydigan yonuvchi suyuqlik, chang va tolalar, qattiq yonuvchi modda hamda materiallar mavjudligi bilan harakterlanadi.

«G» toifaga yonmaydigan moddalar va materiallarni issiq, cho'g'langan yoki erigan holda ishlaydigan, ish jarayonida nursimon issiqlik ajraladigan uchqun, alanga chiqib turadigan, shuningdek, qattiq, suyuq va gzsimon yoqilg'i yoqiladigan sexlar kiradi. «D» toifaga yonmaydigan moddalar va materiallar sovuq holatida ishlatiladigan sexlar kiradi.

Yongin sanoat korxonolari, xalq xo'jaligining barcha tarmokdarida yuz berib, yetkazadigan zarari jihatidan tabiiy ofatlarga tenglashishi mumkin bo'lgan hodisa hisoblanadi. Ular katta moddiy zarar keltirishi bilan birga og'ir baxtsiz hodisalarga - zaharlanish, kuyish hamda kishilar halokatiga sabab bo'lishi mumkin.

Yong'inga qarshi kurash ishlari davlat miqyosida amalga oshiriladi. Yong'in xavfsizligini ta'minlash, uning rivojlanib, tarqalib ketmasligi chora-tadbirlarini oldindan ko'rish, unga qarshi samarali kurash olib borish yonginni o'chirishda qo'llaniladigan birlamchi vositalardan to'g'ri foydalanishga qaratilgan.

Korxonani loyixalashda, kurishda, texnologik jarayoni amalga oshirishda e'tiborga olinadigan yongin xavfsizligi chora tadbirlari kelajakda yonginning oldini olish va undan ogohlantirishda muhim hisoblanadi.

Yong'in xavfsizligi qoida-talablarining buzilishi, texnologik jarayonning rejimga to'g'ri kelmasligi, elektrotexnik asbob-uskunalarining nosozligi, ulardan foydalanish qoidasining buzilishi sanoat korxonalarida yong'in, portlash bo'lishiga olib keladi.

Yong'in sodir bo'lishi asosan texnika xavfsizligi qoidalarining buzilishi, korxon va sex ma'muriyati tomonidan kamchiliklarga yo'l qo'yilishi bilan bog'liq. Ishlab chiqarish korxonalarida mavjud bo'lgan sabablar, beriladigan yoki qo'yiladigan komponentlar tarkibi va tezligining o'zgarishi, aralashtirilmasligi, uskunaga begona modda tushib qolishi, xom-ashyo tarkibining o'zgarishi, gaz, bug'larni yo'qotish usulining buzilishi va boshqa holatlar avariya, portlashga olib keladi.

Texnologik jarayonlarda yong'in xavfsizligini ta'minlashda quyidagi umumiy tadbirlar amalga oshiriladi:

- xavfli texnologik usullarni xavfsiz turiga almashtirish;
- uskuna-moslamalarni tusiklangan holatda joylashtirish;
- korxonalaridagi qo'llanadigan yonuvchi va portlashga xavfli moddalarning miqdorini kamaytirish;
- uskuna, gaz quvurlarida, havo almashtirish tizimida yonuvchi moddalarning portlashga xavfli koitsentratsiyasi hosil bulishiga yul kuymaslik;
- yonuvchi aralashmalarga ingibitorlar, inert moddalar kushish;
- yong'in alanganadigan moddalarni saqlashda, ular bilan ishlashda inert muxitini yaratish;
- belgilangan texnologik rejimni aniq bajarish, standartlarga amal qilish;
- xavfli joylarda o't manbaining paydo bo'lishiga yo'l qo'ymaslik;
- yong'in va portlashning tarqalishiga yo'l qo'ymaslik;

Savdo korxonalarida bino va inshootlarida yong'inni o'chirish uchun suv, suv bug'i, ko'pik, inert gazlar, kukunlar, siqilgan havo va qattiq moddalar keng qo'llaniladi. O't o'chirish moddalari elektr o'tkazish va elektr o'tkazmaslik xossalari ega bo'ladi. Shuningdek, zararli kam zaharli va zaharsiz turlariga bulinadi. Shuning uchun korxonalar va maydonlarini yong'in uchirish moddalari bilan ta'minlashda va yong'inni o'chirishda biror uslubni qabul qilganda ularni hisobga olish kerak.

Xulosa va takliflar

O'zbekiston oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning asosiy yo'nalishlari bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar natijasida quyidagi xulosalarga kelindi hamda nazariy va amaliy takliflar ishlab chiqildi.

1. O'zbekiston Respublikasida oziq-ovqat xavfsizligi barqarorligini ta'minlash uchun, birinchi navbatda, agrar sohada samarali va oqilona islohotlar davomiyligi davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi va doimiy uning nazorati ostida bo'lishi lozim. Bu sohadagi islohotlar oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi bo'lgan g'allachilikda olib borilishi undan yuqori hosil olinishini ta'minlaydi va aholida iste'mol uchun qolayotgan don hajmini yildan-yilga ko'payishiga olib keladi.

2. Kam ta'minlangan va past daromadli aholi qatlamlarini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlashning quyidagi mexanizmlarini joriy etish maqsadga muvofiqdir:

- qo'shimcha ish o'rinlarini yaratish va dotasiyalar ajratish (mavjud daromadlariga qo'shimcha sifatida); Kichik biznesning rivojlanishini qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish, aholi bandligiga va yangi ish o'rinlarini tashkil etishga ko'maklashish; iste'mol talabini oshirishni rag'batlantirish;
- imtiyozli narxlarda oziq-ovqat mahsulotlarini markazlashgan holda taqsimlash;
- qishloqlarda mustahkam baza, infratuzilma va kommunikasiyalarni yaratish;

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi. – T.: O'zbekiston, 2008.
2. O'zbekiston Respublikasi Yer kodeksi. -T.: O'qituvchi, 1998.
3. O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi. –T.: Adolat,1999. -14 aprel.
4. O'zbekiston Respublikasining Qonuni. Fermer xo'jaligi to'g'risida (Yangi tahrirda) // Xalq so'zi. 2004 yil 26 avgust.
5. O'zbekiston Respublikasining Qonuni. Mulkchilik to'g'risida // O'zbekiston Respublikasi qonun va farmonlari. –T.: O'zbekiston, 1992.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. 2004-2006 yillarda fermer xo'jaliklarini rivojlantirish konsepsiyasi to'g'risida. //Qishloq xo'jaligida iqtisodiy islohotlarni chuqirlashtirishning asoslari to'plami.–T.: Fan, 2003.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. Oziq-ovqat ekinlari maydonlarini optimallashtirish va ularni yetishtirishni ko'paytirish chora-tadbirlari to'grisida. 2008 yil 20 sentyabr.
8. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori. 2005-2007 yillarda fermer xo'jaliklarini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida. №607. 2004 yil 24 dekabr.
9. O'zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobi milliy standartlari to'plami. –T.: Norma, 2010. - 108-126 b.
10. Karimov I.A. Jahon moliyaviy – iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf yetishning yo'llari va choralari. –T.: – O'zbekiston, 2009
11. Karimov I.A. Mamlakatimizni modernizasiya qilish va yangilashni izchil davom yettirish – davr talabi mavzusida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasidagi majlisidagi ma'ruza. 2009 yil 13 fevral.
12. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz vatanimiz taraqqiyoti va halqimiz faravonligini yanada yuksaltirish.-T.: O'zbekiston, 2010.
13. Azizqulov B. Ilg'or texnologiyalar iqtisodiy samaradorligi //O'zbekiston qishloq xo'jaligi jurnali 9-son, 2008yil, 35-36 b.
14. Abdullayev R. Mo'l hosil yetishtirish agrotexnik tadbirlarni sifatli o'tkazishga bog'liq. //O'zbekiston qishloq xo'jaligi jurnali- 4-son, 2011 yil, 8 -b.

15. Axrorov F., Muratov Sh. Oziq ovqat mahsulotlarini barqaror ta'minoti va iste'moli muammolari // SamQXI professor o'qituvchilarning "Barkamol avlod yili"ga bag'ishlangan ilmiy amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.- Samarqand, 2010.-15-17 b.
16. Baxtiyorov T. Sifatli mahsulot. //O'zbekiston qishloq xo'jaligi jurnali 4 - son, 2011 yil, 2-3 -betlar.
17. Doliyev T. Modernizasiya qishloq xo'jaligi taraqqiyotida muhim omildir. //O'zbekiston qishloq xo'jaligi» jurnali 4 son, 2011 yil, 1-bet.
18. Ismoilov A., Murtazayev O. Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti.- T.: Moliya, 2005 - 474 b.
19. Murtazayev O., G'aniyev I., Axrorov F., Hasanov Sh. Agrar siyosat va qishloq xo'jalik bozorlari"- Samarqand, 2009y.
20. Teshayev Sh. To'liq ko'chat- mo'l va sifatli hosil garovi //O'zbekiston qishloq xo'jaligi» jurnali 4- son, 2011 yil, 2-3 -betlar.
21. Toshboltayev M., Astonaqulov K. Don nobudgarchiligining oldini olish. //O'zbekiston qishloq xo'jaligi jurnali. 5-son, 2010 yil, 8-9 betlar.
22. Xodiyev B.Yu. va boshqalar. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning «Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari» nomli asarini o'rganish bo'yicha o'quv qo'llanma. – T.: Iqtisodiyot, 2009. – 120 b.
23. Ergashev R.X. Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti T.: "YeXTREMUM PRESS",- 2011y.- 412 bet.
24. Yusupov N.S. Agrar reformi v Kitai: dostijeniya i problemi. T.: -Fan.-2005 188 s.
25. Internet ma'lumotlari:
26. www.press-service.uz Prezidentimiz ma'ruzalari, farmon va karorlari.
27. www.agro.uz Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi sayti
28. www.lex.uz, O'zbekiston Respublikasi Qonun xujjatlar to'plami sayti
29. www.gov.uz O'zbekiston Respublikasi xukumatining rasmiy sayti
30. www.stat.uz O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika boshqarmasi

31. www.samqxi.uz, Samarqand qishloq xo'jalik instituti sayti
32. www.edu.uz, O'zbekiston Respublikasi Oliy va O'rta Maxsus Ta'lim vazirligi sayti
33. www.ziyonet.uz, elektron kutubxona sayti
34. www.usda.gov AQSh Departamentining rasmiy sayti
35. www.uz milliy qidiruv sayti
36. www.fao.org
37. <http://www.agro.uz/uzb/iktisodiyot/> O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi tizimidagi korxonalar va tashkilotlarni 2011 yilning birinchi choragida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish hamda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yakunlari haqida ma'lumoti: OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH mamlakat agrar siyosatining muhim omili
38. www.uzscience.uz Fan va texnologiyalarni rivojlantirishni muvofiqlashtirish qo'mitasi
39. www.academy.uz Fanlar akademiyasining veb-saytlarida keltirilgan. Ma'ruzada Fanlar akademiyasida qishloq xo'jaligi, sanoat va farmasevtika sohalarida yaratilgan va kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohalarida qo'llanilishi mumkin bo'lgan bir qator innovasion ishlanmalar to'g'risida ma'lumot berilmoqda.